

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022
IYUN
№41



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.



+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00



www.tadqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
3-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-3**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-3**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 41-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 32 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохода Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги хузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛANIШЛАР

1. Mirzahamdamova DildoRa Zafarovna, Yo'ldashev Xalilbek Odiljon o'g'li BOG'DOD TUMANI XO'JAQISHLOG'IDAGI "OQIL MINGBOSHI" JOME MASJIDI TARIXIDAN.....	7
2. Mirzahamdamova Dildora Zafarovna O'ZBEKISTONDA KANDAKORLIK BUYUMLARINI ISHLAB CHIQARISH VA RIVOJLANISH TARIXIDAN.....	9
3. Олимов Улуғбек Нусратулло-уғли АРАБ ДАВЛАТЛАРИ ТАДҚИҚОТЛАРИДА ТУРОННИНГ ҚАДИМГИ ДАВР ТАРИХИ (ЎЗБЕКИСТОН ВА ИРОҚДАГИ ЎРТА ПАЛЕОЛИТ ДАВРИГА ОИД ТЕШИКТОШ ВА ШАНИДАР МАНЗИЛГОҲЛАРИ МИСОЛИДА)	12
4. Ашурев Муҳаммад Баҳтиёр ўғли ТАРИХ ФАНИНИ ҮҚИТИШ ЖАРАЁНИДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАР ВА ПЕДАГО- ГИК ТЕХНОЛОГИЯЛарни Қўллаш.....	14
5. Опаев Б. ҚАТАФОН ҚУРБОНЛАРИ БўЛГАН ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНЛИК ҚОЗИЛАР.....	17
6. Tursunova Muhayyo Alimovna SOVET XOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDAGI KATAG'ONLIK SIYOSATI VA UNING MOXIYATI, OQIBATLARI.....	19
7. Obidova Zilola BUXORODAGI ZAMONBOBO YODGORLIGINING O'RGANILISH TARIXI.....	21
8. Rahmatullayeva Saodat Ibragimovna QO'QON ADABIY MUHITINI SHAKLLANTIRISHDA XONLIKDAGI KUTUBXONALARNING O'RNI.....	23
9. Shaxnoza Xaliyeva Aliyevna TURKISTONDA ROSSIYA HUKMIRONLIGIGA QARSHI QARATILGAN XALQ HARAKATLARI VA ULARNING OQIBATLARI	26
10. Райимжанова Камилла Фарходовна, Шавази Рамиз Нуралиевич ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНинг БИРИНЧИ ПРЕЗИДЕНТИ ИСЛОМ КАРИМОВ ТАРИХ, МАҲНАВИЙ-МАЪРИФИЙ МАСАЛАЛАР ҲАҚИДА	28
11. Atamurodova Sabohat TARIX DARSLARIDA O'YINLI TEХNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH	31



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛANIШЛАР

BOG'DOD TUMANI XO'JAQISHLOG'IDAGI “OQIL MINGBOSHI” JOME MASJIDI TARIXIDAN.

Mirzahamdamova DildoRa Zafarovna
Qo'qon DPI "Tarix" kafedrasini o'qituvchisi
Telefon:+998905503575
mirzakhamdamova@mail.ru
talaba Yo'ldashev Xalilbek Odiljon o'g'li

ANNOTASIYA: Mazkur maqolada Farg'ona viloyati Bog'dod tumanidagi Xo'jaqishlog' idagi "Oqil mingboshi" jome masjidi qurilishi va tarixi haqidagi ma'lumotlar mahalliy aholi bergan ma'lumotlar va masjid peshtoqlaridagi yozuvlarga tayangan holda yoritilgan. Masjid tarixini yo'ritish ichki va tashqi turizimni rivojlanishiga hamda tariximizni boyitishiga xizmat qiladi.

KALIT SO'ZLAR: Masjid, xonaqoh, hovuzak, islimiy naqshlar, guvala va pishgan g'ishtlar, vasiqa,

Islom dini paydo bo'olganidan to'hozirgi kungacha yurtimiz va boshqa musulmon davlatlarida qurilish ishlarida eng avvalo masjidlar buniyod qilishga alohida etibor berilgan. Bunga asosiy sabab esa ushbu hadisi sharif hisoblanadi: Usmon (r.a)dan rivoyat qilinadi, Rosululloh sollallohu alayhi va sallamning shunday deganlarini eshitdim: "Kim Alloh uchun bir masjid qursa, Alloh uning uchun jannatda bir uy bino qiladi" (Imom al-Buxoriy, Imom Muslim rivoyati). Huddi shu hadisga asoslanib Farg'ona viloyati, Bag'dod tumani, Xo'jaqishloqdagi Oqil Mingboshi jome masjidi ham qad ko'tardi. Ushbu masjid uch bora qayta qurilgan hisoblanadi.:

1.Qachon qurilishi boshlanganligi ma'lum emas.

2.1906-1907-yillar

3.1988-1991-yillar

Masjidning qurilishi boshlanish davri to'g'risida deyarli ma'lumot yo'q. Bu dastlabki masjid uncha katta bo'limgan bir xonali xonaqohdangina iborat bo'lib, devorlari oddiy sinchli imorat bo'lgan. XIX asr oxirlariga kelib ta'mirtalab bo'lib qoladi. Qishloqdagagi Umriniso ismli beva ayol farzandlari bo'limganligi sababli o'zining mol-mulkidan masjidni qayta qurish uchun mablag' ajratadi. Masjidni qayta qurishga sababchi bo'ladi. Lekin uning mablag'ları masjidni butunlay bitkazishga yetmagan. Qurilish qishloq ahlining ehsonlar hisobiga davom ettiriladi. Qishloq kattalarning aytishlaricha bu masjid 11 yil davomida bitkazilgan ekan. Chunki qurilayotgan masjid eskisidan tubdan farq qilgan holda xonaqoh va katta ayvonli qilib rejalashtirilgan edi. Qurilish yakunlanganidan so'ng usta-hunarmandlarni qurish ishlariga rahbarlik qilgan, Nikolay II (1894-1917) davrida mingboshi mansabida faoliyat yuritgan Oqil Mingboshi ish haqqini berib rozi qilgan. Shuning uchun hamki masjid nomi uning nomi bilan atala boshlagandir. Masjid shifti o'ta maftunkor naqshlar bilan bezatilgan hovuzaklidir. Xonaqoh va ayvonda hijriy "1325-sana" so'zleri bitilgan yozuv bor. Bu milodiy 1906-1907-yillarga to'g'ri keladi. Demak masjid qurilishi 1906-1907-yillarda nihoyasiga yetkazilgan. Endi shu va undan oldingi davrlarda qishloqning bu darajadagi inshootni qurishga qurbi yetar edimi degan savol tug'iladi. Bunga javoban hijriy 1272-sana (milodiy 1855) jumodus soniy oyida qozi Mirfozil binni Jumaboy tomonidan Madinabibi Ashurquli qizining yeri haqidagi, yoki hijriy 1295-sana (1877-1878) jumodus soniy oyida Qambarali ismli shaxsning yerini sotganligi haqidagi vasiyqalarni misol keltirishimiz mumkin. 1295-sanada yozilgan vasiyqa shunday so'zlar bilan boshlangan: "Ho'qand viloyatining katta qishloqlaridan bo'l mish Xo'jaqishloqdagi bir qism ekin yerning tahlili". Bundan ko'rinish turibdiki qishloq Qo'qon Xonligi davrida ham katta qishloqlardan bo'lganligi va o'zining o'rniga ega bo'lganligi uning o'sha davrda masjid qurish imkoniyatiga ega ekanligidan dalolat beradi. Oqil mingboshi boshchiligidagi qurilgan masjid ilk qurilgan eski masjidning o'rnida barpo etilgan.



Imorat osti dastlab bir muddat ot qo'shilgan aravalar yordamida qotirilgan. Ostiga pishiq g'isht terilib, ustidan qo'sh sinh tiklangan. Imoratga nam urmasligi uchun g'ishtlar ostiga g'ijirqum to'shalgan. Sinchlар orasi guvalalar bilan to'ldirilgan. Tomi esa vassa juft ko'rinishida yopilib, ustidan bo'yra, qamish va qum to'shalib, ustidan chim bostirilgan. Tomdagи bu qismining qaliniгi qariyb 1 metrni tashkil qilgan. Yomg'ir suvlari oqib tushib ketishi uchun maxsus yog'och novlar o'rnatilgan. Masjid ayvonida 8 ta, xonaqohda 2 ta ustunlar bor. Ustunlarga o'ta mohirlik bilan geometrik uslublardan foydalanilgan holda ishlov berilgan. Ustunlar pastdan tepaga qarab ingichkalashib borib muqarnaslar bilan yakunlangan. Masjid shifti sharq me'morchiligini o'zida mujassamlashtirgan hovuzak uslubida bunyod etilgan. Honaqohda 6 ta, ayvonda 8 ta hovuzak bor. Ular jimgimador islimiyl naqshlar bilan tabiiy bo'yoqlar orqali ziynatlangan. Xonaqohda asosiy rangni qizil, ayvonda ko'k rang egallaydi. Rang berishda oltin va kumush hallardan ham foydalanilgan. Masjid darvozasidan to'g'ri xonaqohgacha uncha baland bo'limgan metall panjaralar o'rabi turgan (saqlanmagan).

Ichki devorlari ganch bilan qoplanib unga turli xil girx naqshlar ishlangan. (Xudoyorxon saroyidagi naqshlar oxshash). Eshik derazalari yog'ochdan salobatlil qilib ishlangan. SSSR tashkil topganidan so'ng masjid yopiladi. Turli maqsadlarda foydalaniladi. 1950-yillarda Xo'jaqishloqda tashkil etilgan "Andreyev" kolxozi raisi Soli Xalilov davrida kolxzoz tashkiloti tomonidan masjidni buzishga bir necha marta urinishlar bo'ladi. Lekin Soli Xalilov bunga yo'l qo'ymaydi. Keyingi yillarda rus loyihibachisi qishloqqa kelib qishloq yo'llarining loyihasini chizadi. Bu loyihabada masjid yo'lning o'rtafiga to'g'ri kelganida yo'lni masjidning yonidan aylantirib olib o'tishga ko'ndirishadi.

Mustaqillikgacha masjid kolxoz ombori va boshqa vazifalarni bajargan, uch marotaba qurilishida, 1988-yi 17-iyulda masjid sinh devorlari buzilib, hovuzaktar ko'tarib qo'yiladi. Pishiq g'ishtdan devor urib chiqilib, tom uning ustiga qayta o'rnatiladi. Masjid tarhi: xonaqohniki 10.85×7.70 ; ayvoniki- 18.20×8.20 bolgan. Devorlaridagi naqshlar o'zining eski holati bo'yicha qayta tiklanadi.

Masjid 1991-yil 11-avgustda qaytadan qariyb 70 yillik tanaffusdan so'ng o'z faoliyatini yana boshlaydi. Mustaqillikka erishilgandan so'ng masjid Madaniy Meros yodgorliklari ro'yxatiga kiritilib, davlat muhofazasiga olindi. 2000-yil 30-avgustda "Madaniy Meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi" qonun qabul qilindi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 49-moddasida "Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir" deb belgilab qo'yilgan me'yor ham tarixiy inshooatning huquqiy kafolati hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611 sonli "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" farmoni ham "Oqil Mingboshi jome masjidi"ga chet el va ichki turizm sayyoohlarni jalb etish kerakligiga yana bir bor turtki bo'ldi. Masjidda sayyoohlarni o'ziga jalb etadigan o'ziga hos naqshlar haligacha oz jozibasini yo'qotmagan.

Xulosa qilib aytganda bu va bu kabi tarixiy yodgorliklarni jahonga va O'zbekiston aholisiga tanitish vaqt keldi. Bu kabi yodgorliklar yoshlarni ham ma'nani, ham aqlan barkamol bo'lib voyaga yetishida katta ahamiyatga egadir

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Masjid ayvonida va honaqohdagi naqshlarda yozilgan yozuvlar.
2. Hijriy 1295-sanada yozilgan vasiyqadan.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi "O'zbekiston" NMIU, 2014. 17-bet.



O’ZBEKISTONDA KANDAKORLIK BUYUMLARINI ISHLAB CHIQARISH VA RIVOJLANISH TARIXIDAN.

Mirzahamdamova Dildora Zafarovna,
Qo’qon DPI “Tarix” kafedrasini o’qituvchisi
Telefon:+998905503575
mirzakhamdamova@mail.ru

ANNOTASIYA: Kandakorlik san’ati tarixini yaqindan o’rganish, ularning mazmun va ma’no jihatdan rang-barang turlarini ajrata bilish, xalq ommasi orasida keng targ’ib etishning xilmal usullarini joriy qilish, ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning hozirgi bosqichida hunarmandchilik faoliyatini umumiylar tarzda tahlil etish, undan xulosalar chiqarish juda muhimdir.

KALIT SO”ZLAR: Kandakorlik, mis buyumlari, rixtagarkil, buyum quyish san’ati, o’simliksimon naqshlar, oftobalar.

Inson tinimsiz go’zallikka intiladi, go’zallikni ijod qilmasdan, undan ma’naviy-ruhiy zavq olmasdan va shu orqali o’z turmushini bezatmasdan yashay olmaydi.

Dunyodagi barcha xalqlar kabi o’zbek xalqi ham juda qadim davrlardan buyon xalq ruhiyati, turmush sharoitlarini o’zida aks ettiruvchi amaliy san’at asarlari yaratib kelgan. Tabiiyki, moddiy madaniyat mahsuli bo’lgan xalq amaliy san’at asarlari ijtimoiy hayotning bir bosqichidan ikkinchisiga meros bo’lib o’tib, avlodlarning beqiyos madaniy boyligiga aylanib boraveradi.

Ma'lumki, diyorimiz jahon tarixi va sivilizatsiyasining eng qadimiylar maskanlari va markazlaridan biridir. Respublika hududida saqlanib qolgan yuzlab beba ho arxeologik me'moriy va yozma yodgorlik, amaliy san’at va xalq ijodiyoti namunalari - bularning barchasi xalqimizning boy va betakror tarixiy ma’naviy merosidir. Ana shu merosni o’rganish, uni avaylab asrash va kelajak avlodlarga benuqson yetkazish biz, zamondoshlarning sharafli va ma’suliyatli burchimiz va vazifamizdir.

O’zbek xalq san’ati nihoyatda boy va rang-barangdir. Bu san’atning ko’pgina turlari badiiy qimmatga ega bo’lganligi uchun ham dong’i keng tarqalgan. Ganch, yog’och va toshga nafis o’ylgan naqishlar bilan koshinkor qilib zeb berilgan jozibali qadimiy me’morchilik yodgorliklari, badiiy kashtalar va nafosatli guldor matolar, yog’ochga o’yib ishlangan buyumlar go’zalligi bilan kishini maftun etadi.

Chizma, kandakori va qolipoki uslub bilan naqishlangan tabanak (quyma) va xioskori (yasama) metallardan ishlangan buyumlar qadim zamonalardan xalq ro’zg’orinda katta ahamiyatga ega bo’lgan va uning estetik ehtiyojlarini qondirishning vositasi hisoblangan.

Metalldan ishlangan badiiy buyumlarning turli xilari orasida O’zbekistonda zargarlik buyumlari va misga zarb qilib ishlangan buyumlar keng tarqalgan edi. Zargarlik va naqishdor mis buyumlarining ijodkorlari turli ixtisosdagi ytuk ustalar va san’atkor rassomlar edi. Ular ba’zan zargarlik va mis buyumlariga naqsh zarb qilish bilan birga san’atkorlik iste’dodlarini ham yaqqol namoyon etganlar.

Kandakorlik forscha «Kandakori» so’zidan olingan bo’lib, kesma degan ma’noni bildiradi. Kandakorlik ganch, yog’och o’ymakorligi va miskarlikdan tubdan farq qiladi. Kandakorlik miskarlik bilan chambarchas bog’langan sohadir. Miskarlikda mis buyumlarni miskarlar yasasalar, kandakorlar esa mis buyumlarga naqishlarni po’lat qalamlar bilan kesib yaratadilar.

Kandakorlikda miskarlik kabi misni olovda toblaydigan o’choq dam bo’lmaydi.

K a n d a k o r i — mis idishlarga naqsh o’yish ikki xil bo’ladi. Biri kandakori — chuqurroq o’ylidi, ikkinchisi esa chizma sayoz chiziladi. Mis idishlarga o’ylgan naqshlar asosan kandakori bo’ladi. Chizma yordamchi bulib, naqsh zaminlarini bezashda qo’llaydi.

Ko’pgina manbalarda O’zbekistonning yirik shaharlari mis buyumlarga naqsh o’yish sohasini kandakorlik, naqsh o’yuvchi ustani kandakor deb talaffuz etilgani aniqlandi.

Darhaqiqat, kandakorlik-mis buyumlari qadimdan keng xalq ommasi orasida tarqalmagan edi. Bu buyumlardan boylar, chet ellarga olib borib sotuvchi savdogarlar va xon saroylarida sovg’a sifatida chet elliklarga, mahalliy boylarga in’om qilishda keng ko’lamda qo’llanilgan.

O’zbekiston hududida badiiy metall ishlab chiqarish qadimdan mavjuddir. Bu san’atning boshlang’ich kurtaklari ming yillik uzoq o’tmishtga borib taqaladi. Yurtimiz hududlaridan topilgan metalldan ishlangan buyumlarning arxeologik topildiq namunalarini kulolchilik idishlariga



nisbatan oz sonni tashkil etadi. Topildiqlarning bunday kamyobligi metalldan ishlangan buyumlar mavjudligining haqiqiy ko'lамини ifoda etmaydi, albatta. Chunki, qadimdan O'rta Osiyo xalqlari metall parchalarini qayta quyganlar, yasaganlar, bundan tashqari mis parchalarini yashil «misrang» bo'yoq tayyorlashda qo'llaganlar.

Arxeologlar O'rta Osiyoning janubiy, ayniqsa janubi-g'arbiy hududlaridan topilgan misga cho'kichlab ishlangan eng qadimiy buyumlarni yangi eragacha bo'lgan IV ming yillikka oid deb taxmin qiladilar. Oddiy zargarlik bezaklaridan tashqari arxeologlar tomonidan misdan cho'kichlangan bigizlar, cho'qmollar, qalamtaroshlar topilgan.

Yangi eragacha bo'lgan II-Iming yilliklarga doir metalldan ishlangan buyum topildiqlari birmuncha boy va rang-barang. O'zbekistonning turli hududlarida, qadimdan dehqonlar yashab kelgan madaniy hududlardagina emas, balki chorvachilik cho'llari bilan tutashgan Amu va Sirdaryo quyisi oqimi hududlaridan ham metalldan ishlangan qurollar, qilichlar, xanjarlar, o'q yoy o'qi uchlari va turli xil bezak namunalari: uzuklar, metalldan ishlangan munchoqlar, naqshinkor plastikalar va har xil ro'zg'or buyumlari: bigizlar, o'roqlar, ignalar, ot egar-jabdug'ining bronzadan ishlangan qisimlari topilgan. Oddiy va dag'al buyumlardan tashqari badiiy asarlar ham uchraydi.

Dehqonchilik hududlaridan metalldan ishlangan buyumlari texnikasi va namunalari ayniqsa murakkabligi bilan ajralib turadi. Qadimiy ustalarning ayrim asrlari noyob ahamiyatga ega: Farg'ona vodisining Haq degan joyidan topilgan metal buyumlar xazinasi shular jumlasidandir.

Xazina taddiqotchilarini brinchdan quyilgan to'g'nog'ichning majmua bezagini alohida qayd etadilar. To'g'nog'ichga oldida buzoq turgan sigir sog'ayotgan ayolni tasvirlovchi kichik omasi ishlagan. Haykalcha shunday katta mahorat bilan ishlanganki, bu ana shu davrda metall ishlash darajasi yuksakligidan guvohlik beradi.

Shuningdek, Farg'ona vodisidan topilgan bilaguzuklarda qo'y va arslonlarning boshlari nihoyatda ustalik bilan tasvirlanadi. Katta Farg'ona kanali qurilishida er qazish ishlarini bajarish vaqtida brinchdan yasalgan umumlashgan uslubda to'rtta echkinining shakilchalari bilan bezatilgan qozon topilad. Buyum hayvon va inson qiyofasiga katta e'tibor berilib tasvirlangan fonda ma'lum bo'lgan «skif hayvon uslubi» asarlariga yaqindir.

Metall ishlab chiqarishda mahalliy badiiy an'analardan guvohlik beruvchi badiiy uslubning keng tarqalganligi tarixchilarning Farg'ona aholisi metall ishlab chiqarishni xitoylardan o'rganan degan taxminlarga ba'zi bir tuzatishlar kiritadi¹. Aksincha, xitoyliklarga rixtagarlik, ya'ni brinchdan buyum quyish san'atini O'rta Osiyo xalqlaridan o'rganganliklari ehtimoldan holi emas. O'rta Osiyoda yunonlar hukmronlik o'matishi bilan mahalliy san'atga antic san'at ta'siri kirib kela boshladi. Ana shu davr san'ati mahalliy antic san'at sifatida shakillanib, inson qiyofasi va grek mifologiyasi hamda adabiy turlari ko'plab rang-barang usullari kirib borishi uning o'ziga xos xususiyatidir. Grek va mahalliy madaniyatning o'zaro ta'siri ellin xudolarining mahalliy xudolar bilan uyg'ulashib ketishiga olib keldi. Chunonchi, Artimed mahalliy ma'buda Anaxitga juda yaqin. Turli naqshin buyumlarda tasvirlangan ayollar qiyofasi, Ermitajdagagi mahalliy xalq tilida Xvanida nomi bilan ma'lum bo'lgan shaharlar xomiysi ma'buda qiyofasi tasvirlangan kumush taqsimchani misol qilib keltirish mumkin.

Metall buyumlarni badiiy bezashni mahalliy lashtirish davom etib kelayotgan namunasi sifatida Ermitajda saqlanayotgan kumush kosani misol qilib keltirish mumkin. Uning bir tomonida Silega qul qilib sotilgan Gerakl haqidagi rivoyatdan bir voqeа tasvirlanadi, ikkinchi tomonida esa, to'y sahnasi ifodalangan.

Metall buyumlarni yaratuvchi ustalarning badiiy ishlarining tematikasida xotin-qizlar siyomasi ma'lum o'ringa ega edi; aftidan mahalliy ibodathonalarda hudojo'y ayollar mavqeи O'rta Osiyoda katta ahamiyatga ega bo'lib, ularning qiyofalari kumush oftobalarda va boshqa buyumlarda tasvirlangan.

Arab istilosi davrigacha So'g'd aholisi ro'zg'orida badiiy metallning keng tarqalganligini arxeolog topilmalar yana bir bor tasdiqlaydi. O'zbekistonning turli hududlarida o'tkazilgan arxeologik qazish ishlarida xilma-xil metal buyumlar topildi. Masalan, hayvon shakli ifoda etilgan mis naqshlar (kiyik, yovvoyi hayvonlarning kallasi va shu kabilar).

IX-XIII asrlarda kumush ishlab chiqarishdagi inqiroz tufayli ustalar kumush buyumlarni yasashni to'xtatib qo'ydilar. Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida buyumlar asosan bronza va misdan tayyorlandi. Tadqiqotchilar dumaloq noksimon gavdalı oftobalar, o'simliksimon naqshlar o'yib ishlangan bronza idishlar, chirog'donlar va hokazolarni shu davrga taaluqli buyumlar qatoriga kiradi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Абдуллаев. Т. XIX-XX асрларда Ўзбек кандакорлиги. Тошкент: Фан, 1974.
2. Бартолд В.В. Задача русского востоковедения в Туркестане. Сочинения. – Т.: 9.1977 .
3. Sodiqova N. Madaniy yodgorliklar xazinasi. - T.: Fan, 1995.
4. O'zbekiston san'atshunosligi muammolari. T., SITI, 1995.
5. Mahmudov T. XX asr kandakorligi. SAN'AT, 1999.
6. Gul.E. Hunarmandchilik an'analarini saqlab. San'at, 1999, 2-son.
7. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Т., 2000. 10-том.



**АРАБ ДАВЛАТЛАРИ ТАДҚИҚОТЛАРИДА ТУРОННИНГ ҚАДИМГИ ДАВР
ТАРИХИ (ЎЗБЕКИСТОН ВА ИРОҚДАГИ ЎРТА ПАЛЕОЛИТ ДАВРИГА ОИД
ТЕШИКТОШ ВА ШАНИДАР МАНЗИЛГОҲЛАРИ МИСОЛИДА)**

Олимов Улугбек Нусратулло-уғли

Ўзбекистон ФА Тарих институти кичик илмий ходими

Телефон: 998(97) 422 83 79

Largov1900@gmail.com

Аннотация: Ўрта палеолит даврининг энг машҳур икки ёдгорлиги ўзаро таққосланиб, таҳлил қилинган. Араб тадқиқотчиларининг Марказий Осиё қадимги даври тарихига оид хулюсалари берилган.

Калит сўзлар: Шанидар, Тешиктош, Гут-Булоқ, палеолит.

Энг қадимги тарих ҳақида маълумот берувчи асосий манба бу – археологик топилмалар ҳисобланади. Шу сабабли, инсониятнинг энг қадимги тарихига доир илмий хулюсалар яқдил эмас. Марказий Осиё ҳудуди ҳам инсоният цивилизациясининг энг қадимги ўчоқларидан биридир. Жаҳоннинг кўплаб давлатларида минтақанинг қадимги даврига тегишли бўлган тадқиқотлар олиб борилган. Европа, Америка, Осиё давлатлари қатори Араб давлатларида ҳам Туроннинг қадимги тарихи ўрганилмоқда. 2000 йиллардан кейинги давр мобайнида бир нечта араб давлатлари олимлари Марказий Осиёнинг энг қадимги давр тарихи доирасида тадқиқотлар қилишган. Араб давлатлари тадқиқотчилари Турон минтақасидаги энг қадимги давлатчилик тарихи милоддан аввалги III мингийилликка боради деб, таҳмин қиласидар [1]. Энг қадимги давлатчиликка оид бир нечта манзилгоҳлар жанубий Ўзбекистон, Туркменистан ва Афғонистондан топиб ўрганилган. Гунуртепа, Жойтун, Номозгоҳ, Жарқўтон, Сополлитепа, Анов каби ёдгорликлар шулар жумласидандир. Бундай турдаги қадимги манзилгоҳлар Марказий Осиё ҳудудидаги давлатлардан кўплаб топилган.

Туроннинг энг қадимги даврини тадқиқ қилган араб давлатлари олимлари сон жиҳатидан озчиликтин ташкил этади. Араб давлатларида яратилган адабиётлар асосида Исломдан олдинги ва ундан кейинги давр тарихшунислигини таққослайдиган бўлсак, Туроннинг қадимги даврига оид бўлган тадқиқотлар салмоғи анча камдир.

Энг қадимги давр тарихи бевосита археология билан боғлиқ бўлганлиги сабабли, 1998 йилдан бошлаб, Араб археологлари иттифоқи ҳар йили халқаро миқёсда конференция ташкил этади. Конференцияда араб давлатларида археологлар, тарихчилар, бутун дунё миқёсидаги араб давлатлари тарихи бўйича шуғулланадиган олимлар ҳам иштирок этишади. Унда араб давлатларининг энг қадимги даврига оид сўннги илмий изланишлар ва янгиликлар ҳақида сўз юритилади. Ўрганишлар натижасида Туроннинг энг қадимги даврига оид изланишлар конференцияда жуда кам эканлигига гувоҳ бўлдик. Бироқ, сўнгти йилларда араб давлатлари олимлари қисман бўлсада, Туроннинг қадимги даври бўйича изланишлар олиб бормоқдалар.

Мисрлик тарихчи Абулҳасан Бақрий сўнгти йилларда Туроннинг энг қадимги даврини ўрганган ва таҳлил қилган араб тарихчиларидан биридир. А. Бақрий Қоҳира университетида фаолият юритади. У 2005-2011 йилларда Россия халқлар дўстлиги университетида таҳсил олган. У кўплаб инглиз, немис, француз, совет ва рус тадқиқотчиларининг ишлари билан танишиб, Марказий Осиё ва Араб давлатларининг энг қадимги даврдаги ўзаро алоқалари мавзусида илмий изланишлар олиб борган.

Қоҳира Университетининг Археология факултети тадқиқотчилари Абулҳасан Бақрий ва Аҳмад Саид “Тешиктош ва Шанидар: Ўзбекистон ва Ироқдаги ўрта палеолит даврига оид манзилгоҳларнинг ўзаро таҳлили”[2] номли мақоласида Ўзбекистоннинг жанубидаги Тешиктош гори ва Ироқнинг шимолидаги Шанидар ғоридан топилган археологик топилмаларни ўзаро таққослаб, уларнинг фарқли ва ўхшаш жиҳатларини топишга ҳаракат қилишган.

Ўхшаш жиҳатлари: Ҳар иккала манзилгоҳ ҳам тепаликда жойлашган. Манзилгоҳлардан топилган тош қуроллари бир хил техника асосида ясалган. Дафн қилиш усули ҳам деярли бир хилдир.

Фарқли жиҳатлари: Тешиктошдан топилган тош қуроллари бир оз қўполроқ, силлиқ



эмас ва яхши сақланмаган. Шанидардан топилган тош қуроллари эса яхши сақланган, усти силлик.

Шанидар манзилгоҳида буғунги кунда ҳам археологик тадқиқотлар олиб борилмоқда ва янги маданий қолдиқлар топиб ўрганилмоқда. Худуд жиҳатидан бу манзилгоҳнинг майдони вақт ўтган сари кенгайиб боряпти. Айнан шу сабабли бу икки араб тадқиқотчилари Тешиктош манзилгоҳини гўёки Шанидар манзилгоҳининг бир тармоғи сифатида ташкил топган деб тахмин қилишади. Уларнинг фикрича, миграция жараёни натижасида қадимги давр одамлари ғарбдан шарққа қараб ҳаракат қилишган ва Тешиктош манзилгоҳи уларнинг вақтингчалик манзилгоҳи вазифасини ўтаган [3].

Уларнинг бу хулосага келишида, ўрта палеолит даврига оид бошқа манзилгоҳлар Ўзбекистон ҳудудидан бошқа топилмаганлиги ва Тешиктошнинг атрофида ҳам бошқа маданий қолдиқлар сақланиб қолинмаганлигини келтиришади. Бироқбу фикрларасосли эмас. Жумладан, Профессор Р. Сулаймонов палеолитшуносликнинг энг долзарб масалаларидан бири – илк палеолитдан ўрта палеолит даврига ўтишга бағишлиланган мақоласида ўрта палеолитга ўтиш жараёнини Яқин Шарқ билан эмас балки ҳудудий жиҳатдан яқин бўлган Қозоғистондаги манзилгоҳларга боғлашни тафлиқ қилган. Бундан ташқари ўрта палеолит даврига оид кўплаб манзилгоҳлар Тошкент вилояти ва Қашқадарё воҳасидан ҳам топиб ўрганилганлиги келтирилган [4].

Тадқиқотчи Б.К. Сайфуллаев эса ўз мақоласида 2013 ва 2014 йиллардаги Тешиктош горида олиб борилган тадқиқотлар, унинг атрофидаги манзилгоҳлар (Тешиктош-2, Тешиктош-3, Амир Темур ғори, Гут-Булок-1-3) ҳақида маълумотлар келтиради [5].

Араб тадқиқотчилари Абулҳасан Бакрий ва Аҳмад Сайднинг Тешиктош ғори ҳақида берган хулосалари ҳолис емас. Улар бевосита Тешиктош ғорида археологик экспедиция ўюштирган. Бу ғор ҳақидаги маълумотларни эса асосан рус тилидаги манбалардан олган. Ўзбек тадқиқотчиларининг ишлари тадқиқотларига жалб қилинмаган. Бу орқали ҳолис фикр билдириш мумкин эмас.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. А. Бакри. Были ли гиксосы в Средней Азии? Телль Эль Даба и Гонур-депе. // Культуры степной Евразии и их взаимодействие с древними цивилизациями. Кн. 2. СПб: «Перефтерия», 2012. С. 267.

2. "قارعل او ناتس كېبزۇا يىف طسوالا مىدقىل ايرجىل رىچىلىدا نەنافەك: بىرىنىشىشىت - ئىشىت." (Тешиктош ва Шанидар: Ўрта палеолит даврининг Ўзбекистон ва Ироқдаги ёдгорликлари // قىردىن كىسىلە ئەمماج . بادالا ئېلىك ۋە جم) Article 18, Volume 66, Issue 84, April 2016, Page 1-35.

3. Abulkhassan Bakry, Akhmad Said. ““Teshik-Tash and Shanidar: Middle Paleolithic Caves in Uzbekistan and Iraq Compared””. Article 18, Volume 66, Issue 84, April 2016, Page 1-35.

4. Р.Х.Сулейманов. Еще раз о переходе от нижнего палеолита к среднему палеолиту в Центральной Азии. // ЎЗБЕКИСТОН АРХЕОЛОГИЯСИ. № 2 [17]. 2018. 63-75 б.

5. Сайфуллаев Б. Қ. Тешик-тош ғори ва унинг Марказий Осиё палеолитшунослигига тутган ўрни. // ЎЗБЕКИСТОН АРХЕОЛОГИЯСИ. № 2 [17]. 2018. 5-9 б.



ТАРИХ ФАНИНИ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАР ВА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШ

Ашурев Муҳаммад Бахтиёр ўғли
Термиз Давлат Университети Тарих йўналиши
4-курс талабаси

Аннотация: Ушбу мақолада тарих фанини ўқитишнинг замонавий инновацион методларини қўллаш, ўқитиш жараённида юқори самарадорликка эришишнинг замонавий усул ва воситаларига бағишлиланган.

Калит сўзлар: ўқитиш методлари, усул, оғзаки баён методи, кўрсатмали метод, амалий метод, маъруза, сухбат, ҳикоя.

Тарих фанини ўқитиш методикаси ўқитувчиларни таълимнинг анъанавий ва ноанъанавий метод ва усуллари, шакл ва воситаларини, таълим жараёнини ташкил этишининг методик асослари билан қуроллантириб, тарих таълими самарадорлигини оширишга хизмат қиласди. Ҳар қандай мутахассисда бўлгани каби тарихчи педагогларнинг методик билимларга эга бўлишлари учун ва касбий фаолиятни ташкил этишда улардан фойдаланишга компетенциявий ёндашувни шакллантириши талаб этилади.

Тарих ўқитиш методикасидан эгалланган билимларни ўқув жараённида муваффақиятли фойдаланиш, бунда эса тарихчи педагогнинг ўзини ўзи ижодий фаолиятга йўналтириши ва бу фаолиятни самарали ташкил эта олиши мухим аҳамиятга эга. Педагог ижодий фаолиятни ташкил этишда методик фаолиятни ташкил этиш, методик характердаги ижод маҳсулотларини яратишга алоҳида эътибор қаратиши зарур.

Метод юонча —metodos сўздан олинган бўлиб, изланиш, билиш йўли, назария, таълимот, бирор нарсага йўл маъносини англатади. Аниқ вазифани ечишга бўйсундирилган, борлиқни амалий ёки назарий ўзлаштириш йўлларининг йиғиндинсизdir. Шунингдек, мақсадга эришишнинг аниқ, қисқа ва мақбул йўли ҳисобланади. Метод-тарихий тадқиқотлар жараённида аниқ мақсадга олиб борувчи усуллар ва жараёнлар йиғиндинсиздан иборат. Ўқитиш методи эса таълим жараённида ўқитувчи ва ўқувчиларнинг маълум мақсадга эришишга қаратилган биргаликдаги фаолият усуллари ёки таълимда мақсадга эришиш, масалаларни ҳал қилиш йўллари, усуллари тушунилади.

Ўқитиш методи таркибида усуллар алоҳида ажralиб туради. Усул – методнинг таркибий қисми, методни амалга оширишда бир мартағина қўлланиладиган ва алоҳида қадам ҳисобланади. Бошқача қилиб айтганда, ўқитиш методлари ҳар иккала фаолиятнинг, яъни ўқитувчи томонидан ўқувчиларни билим, кўникма ва малакалар билан қуроллантириш, ахлоқий жиҳатдан тарбиялаш, уларда илмий дунёқарашнинг шакллантириш ҳамда ўқувчилар томонидан ўша назарда тутилган илмий билим, кўникма ва малакаларни ўзлаштириш фаолиятида кўлланиладиган усулларни ўз ичига олади. Педагогикага оид адабиётларда ўқитиш методларига катта аҳамият берилади. Дидактика билан шуғулланувчилар методни ўқув жараёнининг ўзаги, кўзланган мақсад ва пировард натижани боғловчи восита деб изоҳлайдилар.

Ўқитиш методи — ўқитишнинг мақсади – мазмуни, методи, шакли, усуллари тизимида мухим ўрин эгаллайди. Ўқитиш методи – мураккаб, кўп қиррали, кўп сифатларга эга бўлган таълимдир. Ўқитиш методида ўқитишнинг объектив қонуниятлари, мақсадлари, мазмуни, тамойиллари, шакллари ўз аксини топади.

Методлар бошқа дидактик категорияларга диалектик боғлиқ ва бири бошқаларини тақозо қиласди, яъни ўқитишнинг мақсади, мазмуни, шакли ҳосиласи сифатида методлар дидактик категорияларга акс таъсир кўрсатади.

Таълим методлари ўқув тарбия жараёнининг таркибий қисми бўлиб, уларсиз таълим мақсади, вазифаларини амалга ошириш, ўқув материаллари мазмунини ўзлаштириш мумкин эмас. Таълим методи воситасида ўқитувчи ва ўқувчининг фаолияти ўзаро мувофиқлашади. Таълим методи – ўқитувчи ва ўқувчиларнинг маълумот мазмунига йўналтирилган фаолиятни тартибга солиш йўлидир.

Айрим адабиётларда педагоглар томонидан метод билан усул тушунчаларини чалкаш ишлатиш ҳолатлари мавжуд. Ўқитиш методларини муваффақиятли амалга ошиши албатта унинг усулларининг маҳорат билан қўлланилишига боғлиқ. Аксарият педагоглар метод



тушунчасини усул деб таржима қилиб ўзларини ва тадқиқотчиларни ҳам чалғитадилар. Бизнингча метод тушунчасини таржима қилиш керак эмас. Уларнинг усуллари аниқ кўрсатилган.

Таълим методлари тизими деб, энг муҳим умумий белгилари билан ўзаро боғланган, бир-бирига таъсир кўрсатадиган методлар гуруҳига айтилади. Бу методларнинг умумий муҳим белгилари – ўқитиш ва ўрганиш усуллари ҳамда ўқитувчи ва ўқувчиларнинг тафаккур фаолиятидан иборатдир.

Ўқитиш методлари усуллари ва ўқувчилар тафаккур фаолиятининг турли шакллари ўртасидаги ўзаро алоқа ва уларнинг бир-бирига кўрсатадиган таъсири асосида бир тизимдаги методларнинг ўзаро боғлиқлиги юзага келади. Таълим тизими тажрибасида кўрсатмали ўқитиш деярли ҳеч қачон ўқитувчининг баёнисиз қўлланилмайди, ўқитувчининг баёни ҳам доим кўрсатмали воситаларга суняди. Ўқувчиларнинг техника воситалари, матнлар ва бошқалар устидаги амалий фаолияти таълимнинг кўрсатмали ва оғзаки усуллари билан чамбарчас боғлиқ бўлади.

Методлар қуидаги икки катта йўналишга таснифланади:

1) Билиш (англаш) манбаига кўра: оғзаки, босма матнлар билан ишлаш, кўрсатмали, амалий методлар;

2) Билиш (англаш) фаолиятининг босқичларига кўра: иллюстратив тушунтириш, репродуктив (тайёр билим бериш), муаммоли, қисман изланиш, илмий тадқиқотчилик.

Тарих ўқитиши методлари классификацияси ҳакида педагоглар турли фикрларни билдирганлар. Бир-бири билан боғланган ўқитиши методларини қуидаги гуруҳларга ажратиш мумкин: 1) оғзаки ўқитиши методи (хикоя, монолог, диалог, сұхбат, сюжетли хикоя, таҳлил қилиб тушунтириш, тарихий манбалар билан ишлаш; тарихий адабиётлар, тарихий хужжатларни изоҳлаш), Оғзаки баён методи – ўқитувчининг хотирасига мўлжаллаб ташкил этилади, тузилиш жиҳатидан уларнинг таркиби бир хил: ўқитувчи тушунтиради, ўқувчилар тинглайдилар.

Хикоя. Баён шаклидаги хикояда ўқитувчи ўқув материали мазмунини турлича айтади, унинг асосий ва иккинчи даражали хусусиятларини изоҳлайди. Маъруза жараёнида ўқувчиларнинг фаоллиги, ташаббускорлигини ошириш мақсадида ўқитувчи ўз нутқини кўрсатмали қурол, муаммо ва топшириқлар билан уйғунлаштиради. Кўриниб турибдики, бошқа методлар, хусусан кўрсатмали ва амалий методлар ҳам жалб этилмоқда. Ўқув материалига оид ибораларга изоҳ бериш, айрим ўринларда ўқувчиларнинг ўзларига холоса чиқаришни таклиф этиш ўқувчиларнинг ўқув-билиш фаолиятининг самарасини оширади.

Сұхбат. Сұхбат ўқитувчи ўқувчининг ўзаро таъсири диалог шаклидаги таълим методидир. Унда мавзу мазмунига хос, атрофлича ўйланган, бирбирига боғлиқ саволларни қўйиши ва саволларга жавоб излаш ҳамда жавоб қайтариш йўллари билан ўқитувчи ва ўқувчи фаолияти ўзаро мувофиқлашади. Сұхбат эвристик ҳам бўлади. Яъни, бунда ўқувчиларнинг тафаккурига мўлжалланган усул бўлиб, унда ўзаро таъсир ўқитувчи саволлари ўқувчиларнинг жавоблари шаклида амалга оширилади. Эвристик сұхбат узоқ тарихга эга бўлиб, ундан қадимги Юноностонда Сукрот мохирона фойдаланган. У ҳозирги илмий-дидактик тадқиқотларда – изланиш сұхбати деб ҳам юритилади. Эвристик сұхбатнинг қатор ижобий томонлари бўлиб, ижодий йўл билан ўқув материалини ўрганиш, ўзлаштиришнинг индивидуал характер касб этиши. 2) кўрсатмали таълим методи (жадваллар, шартли-график иллюстрациятив кўргазмалилик, сурат таҳлили, расм, тарихий хариталар билан ишлаш); Кўрсатмали метод. – Минг марта эшиттандан кўра бир марта кўрган яхши, - деган нақлга амал қилган ҳолда фақат оғзаки баён методли дарсда материалларни ўзлаштириш кўрсаткичи 10% бўлган шароитда дарс ўтиш самарасиз бўлади.

Машғулотларда ўқув материални кўргазмали шаклда тақдим этиши лозим.

Айниқса тарих фанида анъанавий дидактик материаллардан ташқари замон билан ҳамнафас бўлган ҳолда намойишли (компьютер ва ахборот коммуникация технологиялари) кўрсатмалик бугунги куннинг долзарб вазифаларидандир. Кўрсатмалилик дидактикада энг асосий қоида бўлиб, унинг ёрдамида кўрув ўкуви ва ва тафаккур ўзаро уйғунлашади. Кўрсатмали методлар эшитиш ва кўришни ўзаро уйғунлаштириш воситаси ҳисобланади.

Шу туфайли ундан билимларни оғзаки баён қилиш методлари билан ёнма-ён фойдаланиш тарих таълимининг самарадорлигини оширади. Кўрсатмали методнинг қуидаги турлари мавжуд: Иллюстрация методи – (матндан бошқа барча компонентлар) хариталар, расмлар,



чизмалар, жадваллар, схемалар, диаграммалар, доскадаги ёзувларга диққатни тортиш. Намойиш (демонстрация) методи – киноаппарат, АКТ ва бошқа видеотасвирлардан фойдаланиб турли тасвирларни намойиш қилиш. Табиий қўрсатмали қуроллар – нарсаларнинг ўзи, предметлар, муляжлар, одамлар томонидан тайёрланган иш қуроллари, макет, муляж ва бошқаларни қўрсатиш.

Кўрсатмалилик деганда, аввало ўқитиши ва тарихий билимларнинг ўрганишнинг қўрсатмали усули, ўқитувчи баёнининг манбаи ва уни қўрсатмали бўлиши, унинг ўкувчилардаги аниқ, тайёр образларга суяна билиши, ўқув воситаси материалини баён қилиш вақтида қўрсатмали қуроллардан фойдаланиш ва қўрсатмали қуроллар воситасида ўкувчиларнинг билиш фаолиятини фаоллаштириш ҳамда уларнинг ўрганилаётган тарихий фактларни, воқеа ва ҳодисаларни айнан ўзини ёки уларнинг тасвирларини кўриш ёрдамида ўрганишлари тушунилади. Тарихий ҳужжатлар ва бадиий адабиётлардан фойдаланиш ўқитувчи баёнини образли қилиб аниқлаштиrsa, қўрсатмали қуроллар воситасида ўкувчиларда ўтмиш тўғрисида ёрқин ва аниқ тасаввур ҳосил бўлади, ўкувчиларнинг эшлиши фаолиятига кўриш ва сезиш органларининг фаолияти ҳам қўшилади. Шу билан уларнинг билими янада чуқурлашади, мустаҳкамланади. Тарих ўқитишининг қўрсатмали бўлишининг таълимий ва тарбиявий аҳамияти ҳам катта. Аввало қўрсатмали қурол ўкувчиларнинг билим олишида муҳим манба бўлиб хизмат қиласди.

Ўқитувчининг баёни ҳар қанча тўлиқ бўлганда ҳам ўкувчиларнинг воқеалар тўғрисидаги тасаввурлари тўла бўлмайди. Шунингдек, безаклардан фойдаланмай туриб, ўрганилаётган даврнинг манзарасини ҳам тўла, аниқ ва чукур тасаввур қилиб бўлмайди. Кўрсатмали қуроллар ўкувчиларнинг тарихий тасаввурларига аниқлик киритиш ва бу тасаввурларни аниқлаштиришга ёрдам беради. Кўрсатмали тасвирлар тарихий факт ва ҳодисаларнинг ташки қўринишинигина эмас, балки уларнинг ички моҳиятини ҳам очиб беради. Кўрсатмали қуроллар ўкувчиларнинг мураккаб тарихий ҳодисаларни, тарихий тушунчаларнинг маъносини осонроқ тушуниб олишларига ёрдам беради.

Адабиётлар:

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. Тошкент: Чўлпон, 2005.
2. Аскарова Ў.М., Хайитбоев М., Нишонов М.С. Педагогика Дарслик. Тошкент: Талқин, 2008. – 288 б.
3. Ахметова К.И., Файзуллаева Д.М., Хошимова Д.П. Олий ўқув юртида инновацион таълим технологиясини лойиҳалаштириш, режалаштириш ва уни амалга ошириш мавзуси бўйича ўтказиладиган тренинг машғулотининг таълим технологияси: Услубий қўлланма — Иқтисодий таълимда ўқитиш технологияси сериясидан. - Тошкент: ТДИУ, 2010. - 80 б.
4. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001.



ҚАТАҒОН ҚУРБОНЛАРИ БҮЛГАН ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНЛИК ҚОЗИЛАР.

Опаев Б.

Қорақалпоқ ижтимоий фанлар

илемий-тадқиқот институти.

Ф.И.О. Ораев Baymurat Abdreshitovich

Эл. Почта: opaev@inbox.ru

Тел: +998 992441822

Аннотация: Мазкур илмий ишда муаллиф асосан Қорақалпоғистонлик қозиларнинг совет ҳукумати тарафидан қатағон қилиниши ҳақида манбаларини қуллай утириб, сабиқ қозиларнинг айибсиз репрессия қилинганини ёритиб беришга ҳаракат қилган. Илмий ишда қозилар судининг тугатилиши ва Тахтакўпир кўзғолонидан кейин ўларнинг оммавий репрессия қилиниши тарихи ҳақида сўз боради. Шунингдек, муаллиф тарихий маълумотларнинг таҳлил қилиниши асосида, репрессия қурбонлари тағдирини тарихий сабоқ сифатида кўрсатишга ўринган. Муаллиф ўзининг дала ёзувларидағи материаллардан хам фойдаланган.

Калит сўзлар: Қатағон қурбонлари, қозилар, репрессия, Тахтакўпир кўзғолони, Қорақалпоғистон автоном вилояти.

Қорақалпоғистон тарихида қайғули из қолдирган сталинлик репрессия даврида дин вакиллари қаторида сабиқ қозилар ҳам қатағон қурбони бўлди. Ҳар хил ёлғон айбловлар билан бегуноҳ қамалди, айримларига ўлим жазоси тайинланди. Баъзи қозилар эса ўз она ватанидан сургун қилинди. Қорақалпоғистонда қозиларнинг репрессия қилиниши 1929 йили Тахтакўпирда бўлган кўзғолондан кейин оммавий тус олди.

Қатағон қурбонлари бўлган қозилар ҳақида тадқиқот ишларини мустақилликдан кейин олиб борилди ва ўларнинг исмлари оқланди. Қорақалпоғистондаги репрессия қилинган қозилар ҳақида Ш.Бабашев, О.Юсуповлар в.х. тарихчи олимлар ўрганди.

1924-1930 йилларда Қорақалпоғистон АОи Қозогистон АССРи таркибида бўлди. 1928 йили қозилар суди фаолиятини тўхтатилди. 1929-йили сентябрь ойи охирида Тахтакўпирда сабиқ облсуд бошлиғи Абдижалил Исметуллаев ва Барлықбай бўлис бошчилигидаги ҳалқ кўзғолони бостирилгандан кейин кўзғолон бошчилари билан бирга кўзғолонда иштирок этган ва унинг билан алоқадор бўлган шахслар ҳам қамоқга олинди. Улар орасида сабиқ қозилар ҳам бор эди.

Халқимизнинг мард фарзандлари А.Досназаров, Каримберди Садуллаев, Бадратдин Сейдрасулиев, Ораз Ермановлар билан бирга қорақалпоқ ҳалқининг давлатчилигини қайта тиклашда қатнашган ажойиб инсон Асқар қози Орынбаев ҳам тоталитар тизимнинг қурбони бўлди. Ҳозиргача ўнинг қайси йиллари қози лавозимида ишлагани аниқ эмас. 1923-1928 йиллари Совет ҳукуматининг масъулиятли лавозимлари да ишлаган.

1929 - йилдаги Тахтакўпир кўзғолони иштирокчиларини қуллав-қуватлагани учун Асқар Орынбаев 1929 йили 19 октябрида ОГПУ нинг Қорақалпоқ областлик бўлими тарафидан қамоқга олинган. ОГПУ нинг ёнидаги «Учлик»нинг Қозогистондаги тўлиқ ҳукуқли вакиллиги мажлисининг 1929 йили 4 декабридаги қарори билан РСФСР Жиноят кодексининг 58 статьяси 2 банди билан айбланип, Тахтакўпир кўзғолонини бошлашга фаол қатнашгани учун ўлим жазосига ҳукм қилинган.

1929 йили Тахтакўпир қуролли кўзғолонининг фаол иштирокчиларидан бири Темирхан қози Байназаров ҳам жазодан четда қолмади. Темирхан қози Байназаров РСФСР Жиноят кодексининг 58 статьяси 2-бўлими билан айбланип ОГПУ нинг Қозогистон АССР идаги тўлиқ ҳукуқли вакиллиги ёнидаги «Учлик» мажлисининг 1929 йил 4 декабридаги қарори билан энг оғир ўлим жазосига ҳукм қилинди. Ҳукм 1930 йили 24 январида Чимбай шахри марказида бажарилди.

Шунингдек, 1929 йил Қорақалпоғистон автоном вилоятининг шимолий туманидаги контреволюциялик кўзғолонга фаол қатнашган Тахтакўпир тумани 8-овули турғини Бекбаулы қози Қалымбетов, 5-овули турғини Рапай қози Нагрибатловлар ҳам контреволюциялик иттифоқнинг қаторида туриб, 1929 йил Тахтакўпир кўзғолонига фаол қатнашганликда айбланиб қамоқга олинди ва оғир жазога тортилди.



Қўнғирот беклигига қози, кейинчалик бий лавозимида хизмат қилган, оддий халқнинг ҳукуқларини ҳимоя қилишда ва совет ҳукуматининг зулмига қарши бош кўтарган инсонларни қуллав-қуватлашда фаол хизмат қилган Ешим қози Қутлымуратов ҳам совет ҳукуматиниг душмани қаторида айбланип 1930 йили март ойида қамоқга олинди.

Ешим қози Қутлымуратов 1931 йили 11 февралида РСФСР Жиноят кодексининг 58 статьяси 10 банди билан Ўрга Осиё ОГПУ ёнидаги «Учлик»нинг қарори билан уч йил муддатга сургун қилинди.

Қорақалпоғистон автоном вилоятининг жанубий туманларида совет ҳукуматига қарши ташкиллаштирилган ва ҳаракат этган контрреволюциялик иттифоқнинг фаол аъзолари ҳам 1929 йилдаги Тахтакўпир қуролли қўзғолонини қўллаб-қуватлашда ёрдам кўрсатганлар Қипчоқ туманининг 1-овули турғини Халмурат қози Ишмуратов, Қипчоқ тумани 3-овули турғини Шеримбет қози Даўлетмуратов, Шанияз қози Матирзаев, Шаббаз туманидан Атажан қози Хасановлар КАО ОГПУ начальниги Бессоноговнинг бўйруғи билан «халқ душмани» қатори айбланип, қамоқга олиниб суд жавобгарлигига тортилди.

Тўрткул туманининг обрўли уламоси Отамақсим қози Мухаммаддинов тумандаги Совет ҳукуматига қарши террористик ҳаракатга бошчилик этганлиқда айбланип, 1929 йили 21 ноябрида ПП ОГПУ нинг Қозоғистон буйича уринбосари Альшанский бошқарган «Учлик» нинг мажлиси қарори билан РСФСР Жиноят кодексининг 58 статьяси 2 ва 8 бандлари билан айбланип мол-мулкини конфискациялаш билан 32 ёшида ўлим жазосига ҳукм қилинди.

Ўз даврининг адолат йулида халқига хизмат қилган қозилардан бири Кўшкинбай Тоҳмағамбетов эди. 1931-йили 24-мартда ОГПУ тарафидан Кўшкинбай қози Тоҳмағамбетов коллективлаштиришга ва 1929 йилдаги қўзғолон бошчилари билан бирга отряд ташкиллаштириб совет ҳукуматига қарши курашгани учун айбланип 1931-йили март ойида суд жавобгарлигига тортилди.

1887 йили туғилган Тўрткул тумани Сарибий овулининг турғини Ниязимбет қози Юсупов ҳам Кўшкинбай қози билан суд жавобгарлигига тортилган эди. 1924-1925 йиллари Қўнғирот шаҳрида қози лавозимида ишлаган Есемурат қози Ерниязов 1930-йили 20 марта «халқ душмани» сифатида айбланди.

Жабирланувчиларнинг тағдирини, халқимизнинг ҳукуқларини ҳимоя қилишда жон талашиб курашган зиёлilarимиздан бўлган қозилар бегона юртларга сургун этилди. Ўларнинг кўпчилиги зулимлик тизимининг тўрига тушуб бегуноҳ қурбон бўлдилар. Халқимиз оғир юқотишларга учради. Мустақилликга эришганимиздан кейин ўларнинг исмлари қайта тикланди. Ўларнинг номларини мангушлаштириш ҳар биримизнинг инсонийлик вазифамиздир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бабашев.Ш. Репрессии. Депортация. Преступления против человечества. Нукус. «Қарақалпақстан», 2014. 398 бет.
2. Ш.Бабашев.Ш. Асқар қазы Орынбаев 73 жылдан кейин ақланды. «G'a'rezsizlik ha'm ni'zam», 11.05.2012. 2-4 бетлар.
3. Юсупов. О. Умыт болмас уламалар. «Qaraqalpaqstan jaslari'», 19.04.2001. №17. 8-бет.
4. Опаев.Б Дала ёзувлари. Қорақалпоғистон. 2022 й.



**SOVET XOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDAGI KATAG'ONLIK SIYOSATI VA
UNING MOXIYATI, OQIBATLARI**

Tursunova Muhayyo Alimovna

Muhayyoalimovna033@gmail.com

“Tabiiy va aniq fan”larga ixtisoslashtirilgan

SX Sirojiddinov nomidagi Respublika akademik litseyining

“Tarix”fani Bosh o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolaning yoritilish jarayonida shularga e'tibor qaratildiki, Mustabid tuzum Markazda va joylarda o'z mutlaq hokimiyatini shakillantirish, mustahkamlab borish, sodiq muayyan siyosiy va ijtimoiy kuchlarga tayanib ish qilish va shu siyosiy jarayonlar haqida so'z brogan va jarayonni qisqacha tasnifi keltirilgan.

Kalit so'zlar: Pirlar, Barkamollik, Yetuklik, Iroda, Shajara, Ulug'.

Kirish: Mustabid tuzum Markazda va joylarda o'z mutlaq hokimiyatini shakllantirib, mustahkamlab borar ekan, bunda u o'ziga sodiq muayyan siyosiy va ijtimoiy kuchlarga tayanib ish yuritmog'i kerak edi. Shu maqsadda, Markaz hukumati yangi sotsialistik jamiyat qurilishi davomida O'zbekistonga o'zining ko'p sonli sadoqatli xodimlari, vakillarini rahbari lavozimlarga yuborib turganligi bejiz emas. Xususan, ular yordamida o'lka hayotida kechayotgan barcha jarayonlar, o'zgarishlardan doimiy xabardor bo'lish, ularning yo'nalişlarini, maqsad, vazifalarini belgilash, mahalliy kadrlar faoliyatini kuzatish, nazorat qilish mumkin bo'lardi. Markaz O'zbekistonlik milliy kadrlarning kundalik ishlariga «ko'z-qulqoq» bo'lish, ular faoliyatini tekshirish, taftish qilish barobarida sotsializm qurilishi yo'lida sadoqat bildirgancharni tanlash, tarbiyalash, ularni yuqori mansablarga ko'tarishni o'z e'tiboridan chetdatutmadi.

Shu bois, Markaz ishonchini qozonib, uning nufuzli namoyondalari bilan yaqindan hamkorlik qilgan, kerak bo'lganda- o'z xalqining manfaati, qiziqishlarini ko'zlab ish yuritgan bilimdon kadrlar soni ham ko'payib borgan. Ammo Stalin yakkahokimligi kuchayib, totalitar tuzum bedodligi avj olib borgan sari bunday kadrlarni arzimas sabab va bahonalar bilan qiyinoq-qistovga olish, vazifalaridan chetlatish odatiy tusga kirib bordi. Rahbar kadrlar, ayniqsa, o'z xalqi, yurtining milliy manfaatlarini himoya qilib, uning istiqbolini ko'zlab, o'zida kuch, iroda topib, bor haqiqatni aytilishga jur'at qilgan miliat vakillari birinchi navbatda hukmron Markaz uyuştirigan qatag'onga duchor bo'ldi. Buning yorqin ifodasini Sovet mafkurachilar tomonidan o'zbek milliy kadrlari sha'nini bulg'ashga qaratilgan, atayin to'qib chiqarilgan «18 lar guruhi», «Inog'omovchilar», «Qosimovchilar» guruhlari misolida ko'rish mumkin. Ularning faoliyatiga oid tarixiy hujjatlarni ko'zdan kechirar ekanmiz, bu insonlar faoliyatida ularni ayblashtirishga bois bo'ladigan hech bir asosli ashyoviy dalillar bo'limganligiga to'la amin bo'lamiz. Ularning yagona «gunohi» - bu o'z millati dardi, tashvishi va manfaatini ko'zlab ayrim muhim muammolarni ko'targanligi va ularni hal etishga yuqorining e'tiborini jalb etganligi holos.

Xo'sh, bu guruhlar tarkibi kimlardan iborat bo Hgan ? Ular sovet mutasaddilari oldida qanday gunoh qilgan edilar?

Respublikaning taniqli arboblaridan iborat «18 lar guruhi» (I.Xidiraliyev, M. Saidjonov, U. Ashurov, R. Rahimboboyev, Eshonov) ga «yer-suv islohotiga qarshi chiqqan, boy-qulqoq va yer egalarining manfaatini himoya qilib chiqqanlar, mahalliychilik va millatchilik g'oyalarini ilgari surgan» degan soxta aybnoma qo'yildi. Aslida esa ular hukmron Markazning ulug' davlatchilik va shovinistik siyosatiga, milliy kadrlarga nisbatan bepisandlik, loqaydligiga qarshi chiqib,adolat va haqqoniylig tamoyillarini himoya qilganlar. Shu bois, rasmiy partiya organlari tomonidan mazkur guruh keskin qoralanadi va uning a'zolari turli jazolarga giriftor etildilar. «Inog'omovchilik» guruhi to'g'risidagapborganda, unga qo'yilgan barcha ayblarning to'liq to'qib chiqarilganligi ayon bo'ladi. Ma'lumki, Rahim Inog'omov O'zKP(b) Markazqo'mi Matbuot bo'limi mudiri va O'zSSR Maorif Xalq Komissari vazifasida faoliyat yuritib kelgan. R.Inog'omov o'zining bir qator nutqlarida O'zbekiston kompar-tiyasining mustaqil faoliyat yurita olmayotganligiga, Markaz organ-larining o'lka hayotidagi zo'ravonligiga ham alohida urg'u bergan. Respublikaning bir qator mas'ul xodimlaridan N.Mavlonbekov,T. Isamuhammedov, M.Aliyev, Bobonazarov singari hammaslaklar Inog'omov qarashlarini qo'llab - quvvatlab chiqqandilar. Bunday muxolifatchi chiqishlar hukmron partiya mutasaddilarining qahriga uchramasdan qolmasdi, albatta. Shu bois, 1926, 1927— yillarda



bu guruh faoliyati partiya tashkilotlarida bir necha bor muhokama qilinib, og'machi guruhbozlikda ayblandi. Inog'omov tarafдорлари vazifalaridan olinib, nomlari qoralandi. «Qosimovchilik» guruhi ham 1929-1930— yillarda sovet hukmron rejimi tomonidan milliy kadrlarni, ziyolilarni qatag'on qilish, jazolash maqsadida atayin uyuştirilgan navbatdagi uydurma edi. O'z SSR Oliy Sudining raisi lavozimida ishlagan S.Qosimov va uning yaqin maslakdoshlari: N.Alimov, Musaboyev, Sharipov, Sirojiddinov va boshqa-jami 7 kishi 1929— yilning 2-yarmida «bosmachilik» harakatiga yon bergenlikda ayblanib qamoqqa olindilar. Ular respublikadagi millatchi tashkilotlar bilan aloqa bog'laganlikda ayblandilar. Bu guruhning 4 ta a'zosi shunday asossiz ayblanib, otib tashlandi. Qolganlari esa ko'p yillik qamoq jazosiga hukm qilindi. Mustabid tuzum hukmdorlari uchun O'zbekiston singari milliy Sovet Respublikasi rahbarlari, xodimlarini to'la itoatda tutishning birdan bir sharti - bu ularning mustaqil faoliyatiga izn bermaslik, vaqt - vaqt bilan silkitib turish, mabodo xato, kamchiliklari topilguday bo'lsa, shafqatsiz jazolash yo'li edi. Milliy kadrlar faoliyatiga nisbatan bunday noinsoniy, g'ayriqonuniy yondashuv oqibatida respublikada o'z ongli hayoti, jo'shqin faoliyatini sovet-laming yolg'on, soxta g'oyalari, sotsializm g'alabasi uchun bag'ishlagan, shu yo'lدا jon fido etib kurashgan qancha yetuk partiya va davlat rahbarlari qatag'on domiga g'arq bo'ldilar. O'zbekiston ravnraqi, xalqining baxtu saodati uchun fidoyilik ko'rsatgan Akmal Ikromov, Fayzulla Xo'jayev, Abdulla Rahimboyev, Isroil Ortikov, Abdulla Karimov va boshqa o'nlab mahalliy rahbar kadrlarning qismati, pirovardda, mana shunday fojia bilan yakun topdi. Mustabid tuzum hukmdorlari va ularning chaqqon dastyorlarning yeng shimarib qilgan «sa'y - harakatlari» natijasida 1937-1938— yillar davomida O'zbekistonda bir qator yirik aksiiinqilobiy tuzilmalar tuzilgan, faoliyat yuritmoqda, degan soxta ma'lumotlar to'plandi. Mana shunday soxta ma'lumotlar asosida respublika rahbarlari A.Ikromov va F.Xo'jayev boshchiligidagi «Burjua - millatchilik aksiiinqilobiy tashkiloti markazi», Abdurauf Qoriyev rahbar bo'lgan «Musulmon ruhoniylarning millatchi -isyonkor tashkiloti», «Aksi inqilobiy o'ng trotskiychi josuslar tashkiloti markazi», «Buxoro va Turkiston baxt-saodati» nomli aksiiinqilobiy tashkiloti, I.Ortiqov boshliq «Yoshlarning aksi inqilobiy burjua-millatchilik tashkiloti», «Ingliz josuslik rezidenturasi», «Yapon josuslik-qo'poruvchilik rezidenturasi» kabi tashkilotlar Soviet hokimiyatiga qarshi faoliyat yuritmoqda deb e'lon qilindi, ularni tuzishda gumon qilinganlar qatag'on qilindi.

*Xulosa :*sifatida shuni takidlashimiz lozimki, Biz, milliy istiqloil davri kishilarini jonajon yurtimiz ozodligi va mustaqilligi yo'lida kurashib, stalincha qatag'on qurbanlari bo'lgan aziz insonlar xotirasini doimo qafbimiz to'rida saqlamog'imiz kerak. Bu har birimiz uchun farzu qarzdir. 1-prizidentimiz yurtboshimizning 2001— yil 1-maydagi farmoni bilan har yili 3 - avgust kunini «Qatag'on qurbanlari» xotirasini nishonlash kuni deb e'lon qilinganligi g'oyatda quvonarlidir. Bu hozirgi avlodning shahid ketganlar xotirasi oldidagi ehtiromining umumxalq e'tirofidir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. "Temur tuzuklari";
2. Nizomiddin Shomiy.
3. "Zafarnoma";
4. Sharafiddin Ali Yazdiy. "Zafarnoma";
5. Ibn Arabshoh. "Amir Temur tarixi";
6. Fasih Havofiy. "Mujmali Fasihiy"
7. Hafizi Abro'. "Zubdat ut-tavorix"
8. Muxlis.uz
9. www.vakillik.uz

Elektron ta'lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz



BUXORODAGI ZAMONBOBO YODGORLIGINING О’RGANILISH TARIXI

Obidova Zilola

Buxoro viloyati Jondor tumani
3-maktabning tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro shahridagi qadimiy Zamonbobo yodgorligi haqida, uning o'rganilish tarixi va yodgorliklar haqida malumot berilgan.

Kalit so'zlar: Zamonbobo, Buxoro, arxeologik yodgorliklar, tadqiqot, ko'l, qabriston, quroq, chayla, dehqon, Gujayli, xo'jalik.

Jahon ilm-fani va sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shgan shaharlarimiz orasida Buxoro alohida o'rinni tutadi. Qariyb uch ming yillik tarixga ega bu maskan haqida turli davrlarda ko'plab ma'lumotlar yozilgan. Shahar Zarafshon daryosining quyi oqimida, uning irmoqlaridan biri - Shahrud (shahar ichidagi daryo) kanali bo'ylab joylashgan bo'lib, azal-azaldan mintaqasi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim rol o'ynagan. Tadqiqotchilar Buxoroni mintaqani tarixiy va madaniy birlashtirg'an G'arb'iy yoki Buxoro so'g'diyli manzili, deb atagan.

Buxoro vohasidagi Moxandaryo va Gujayli o'zanlarining yuqori qismi hamda Poykent atroflari qadimiy maskan hisoblanib, bu yerlarda eramizdan avvalgi II va I ming yillik boshlariga oid yodgorliklar uchraydi. Bu hududlarda 30 dan ortiq arxeologik yodgorliklar topib o'rganildi. Mazkur yodgorliklar va ulardan chiqqan turli xil ashyoviy topilmalardan aniqlanishicha, bu davrga kelib qadimgi buxoroliklar hayotida ikki yangi xo'jalik - ibtidoiy dehqonchilik va chorvachilik shakllanib, ular aholi hayotining asosiy tirikchilik manbaiga aylangan. Ovchilik va baliqchilik esa shu davrdan boshlab, ikkinchi darajali yordamchi xo'jalik bo'lib qolgan. Bu, shubhasiz, Buxoro va Qorako'lning qadimgi aholisi hayotida yangi tarixiy davr bo'lib, o'lkani asta-sekin obod etib, uni iqtisodiy jihatdan o'zlashtirishga kirishilganidan, aholisi esa batamom ishlab chiqarish xo'jaligiga ko'chganidan dalolat berar edi.

Bu davrga mansub arxeologik yodgorliklar orasida Zamonbobo ko'lining shimoliy sohilida qayd etilgan ibtidoiy dehqonlarning qabristoni hamda ko'ldan 500 m sharqda Gujaylining qurib qolgan qadimgi o'zani yoqasida kovlab ochilgan turar joy xarobalarini, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Zamonbobolik ibtidoiy dehqonlar qabristonini o'rganishda atoqli arxeolog Y.G'ulomovning xizmatlari e'tiborga molik. Yodgorlik Y.G'ulomov tarafidan 1951-1953-yillar davomida qazib o'rganildi. O'z davrida Buxoroning ibtidoiy jamiyat tarixini o'rganish masalasida burilish yasagan bu yodgorlikning topilishi tasodifiy emas, albatta. Unda Y.G'ulomovning Xorazmda S.P.Tolstov bilan hamkorlikda olib borgan ko'p yillik arxeologik tadqiqotlardan to'plagan ulkan tajribasi, ayniqsa qo'l kelgan edi. Shu sababli bo'lsa kerak, taqir tuproq orasidan favqulodda topib olingen kamon o'qining toshdan yasalgan paykonini bu nodir obidaning kashfiyotiga turtki bo'lgan. Chunki Zamonbobo ko'li sohilida joylashgan bu qadimgi go'ristonning ko'zga tashlanadigan birorta ham belgisi bo'lmay, usti bir oz qumliklar bilan qoplangan tekislikdan iborat edi. Bizning davrimizgacha qabristondagi qadimiy go'rarning faqat ostki lahad qismlarigina saqlanib, ularning atrofi ham tekislanib, mutlaqo bilinmay ketgan. Qabrlarning supa va ustki gumbaz qismlari asrlar davomida tuproq eroziyasi oqibatida yemirilib, ularni shamol o'zi bilan uchirib olib ketgan. Qazib ochilgan 46 ta qabr qoldiqlaridan 8 tasida juft, 28 tasida esa yakka holda dafn etilgan jasad skeletlari qayd etildi. Hatto ikki qabrdan kattalar yoniga yosh bola jasadi ko'milgani aniqlandi. Saqlanib qolgan skeletlarning holatiga qaraganda jasdalarining deyarli hammasi o'ng yoki chap yoni bilan yonboshlatib, g'ujanak tarzda dafn etilgan.

Qazishma jarayonida erkaklar dafn etilgan qabrlarda asosan o'q-yoy paykonlari, pichoqsimon tosh qurollar va turli shakldagi sopol idishlar, ayollarga mansublarida esa sopol idishlar bilan bir qatorda jez ko'zgu, upadon, surmadon kabi pardoz-andoz buyumlari, qimmatbaho va yarim qimmatbaho jilvir toshlar, lojuvard, feroza, aqiq singari toshlardan yasalgan turli shakldagi munchoq va marjonlar qayd etildi. Topilmalar orasida ayol haykalchasi, xovoncha dastalari, oltin munchoq va boshqalar ayniqsa diqqatga sazovordir.

Shuni ham qayd etish lozimki, bu davrda yer kovlovchi mehnat qurollari hali takomillashmagan, bunday qurollar bilan qabr qazish g'oyatda mashaqqatli bo'lgan. Oqibatda tor-tanqis qabrlarga marhumlarni bukib ko'mish odat tusini olgan. Erkak murdalarni qurol-asbob, ayol murdalarni esa bezaklari bilan, idish-tovoqlarda esa yemakliklar bilan ko'mib dafn etish Qorako'lning ibtidoiy



dehqon ahlida o'sha qadim zamonlardayoq narigi dunyoga ishonish e'tiqodi mavjud bo'lganidan dalolat beradi.

Buxoroning ibtidoiy dehqonlariga mansub obidalarni topib o'rganishga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan olimlardan yana biri arxeolog A.Askarov bo'ldi. U 1961 yilning kuzida Zamonbobo ko'lidan 500 m sharqroqda Gujayli daryosining qadimgi qo'riq o'zanining o'ng sohilida joylashgan ibtidoiy dehqonlarning turar joy qoldiqlarini topib tekshirdi. Ibtidoiy dehqonlarning bu qadimgi qishlog'i yarim yerto'la va taqir ustiga o'rnatilgan ikkita yengil chaylalardan iborat bo'lib, ulardan birinchisi bizgacha juda yaxshi saqlangan. Chunki aholi tomonidan tashlab ketilgach, bu turar-joylar ko'chma qumlar ostida ko'milib ketgan. 1961-1964-yillarda olib borilgan qazish ishlari tufayli bu qadimgi dehqonlar qishlog'i qoldiqlari to'la qazilib, sinchiklab o'rganildi. Uning umumiy maydoni, chaylalarning tarxi, tuzilishi, ishlatilgan qurilish materiallari, qayd etilgan ashayoviy qoldiqlar asosida bu yerda istiqomat qilgan ibtidoiy dehqon jamoasining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotining ayrim tomonlari aniqlandi. Qazib ochilgan birinchi turar joy yarim, yerto'la shaklidagi kattagina chayladan iborat. Uning poydevori bir metr chuqurlikda o'yib ishlangan. Chaylaning uzunligi 23,5 m, kengligi 9 m. Chayla ichi va atrofidagi ustun o'rnatish maqsadida kovlangan chuqurchalarga qaraganda, u sinchkori bo'lib, devorlari yulg'un novdalaridan chetan qilib to'qilgan, atrofiga lo'mboz bosilib, tomi qamishlar bilan ikki nishabli qilib yopilgan. Bu turar joyning umumiy maydoni 170 kv.m. bo'lib, unda taxminan 60-65 jon istiqomat qilgan. Chaylaning ichi va tashqarisida bir nechta o'choq o'rinnari, xo'jalik o'ralari ko'zga tashlanadi. Ular tevaragida esa sopol idish bo'laklari, turli xil tosh qurollar, xonaki hamda yovvoyi hayvon (echki, qo'y, qoramol, kiyik, to'ng'iz), parranda, baliq suyaklari, shuningdek, aqiq, lojuvard singari jilvir toshlardan yasalgan munchoq, marjon kabi taqinchoqlar, jezdan yasalgan ko'zgu parchalari sochilib yotardi.

Bu qadimgi turar joyning hovlisidan topilgan xonaki kulolchilik xumdonining qoldiqlari, ayniqsa noyob topilma hisoblanib, u zamonbobolik ibtidoiy dehqonlar xo'jalik hayotining muhim sahifalarini aniqlash imkonini berdi. Diametri 90 smli bu xonaki xumdon noksimon shaklda yasalib, o'rtasida loy ustuncha, tepasi gumbazli, tashqarisi somonli loy bilan suvalgan. Bir tomonida olovxonasi bo'lib, gumbazidan bir nechta dudburon teshikchalar qo'yilgan.

Zamonbobolik ibtidoiy dehqonlarning bu qadimgi qishlog'i Gujaylining quyi irmoqlaridan biri uch tomondan o'rab o'tgan burunda joylashgan. SHu sababli u shubhasiz mavsumiy daryo toshqini xavfi ostida bo'lgan. Bunday xavfni oldini olib, uni bartaraf etish maqsadida qarorgoh sharq va janub tomonlardan maxsus ko'tarma band-marza bilan o'rab olingan. Daryo toshqiniga qarshi barpo etilgan bu qadimgi inshootning uzunligi 10 m, kengligi esa 2 metrga teng. Bizga qadar u 20-25 sm balandlikda saqlangan. Bu o'ziga xos noyob osori-atiqa namunalaridan bo'lib, Buxoro vohasi hududida qayd etilgan dastlabki eng qadimgi suv inshooti qoldig'i edi. U shubhasiz suv inshootlari-bandlar vositasida daryo toshqinlarini boshqarib, sun'iy sug'orish barpo etila boshlanganidan guvohlik beradi.

A.Asqarovning yozishicha, Zamonbobo qabristoni va qarorgohidan topilgan ashayoviy qoldiqlar bir-biriga juda o'xhash bo'lib, ular qadimgi zamonboboliklar asosan dehqonchilik va xonaki chorvachilik bilan kun kechirganliklaridan guvohlik beradi. Topilgan ko'pdan-ko'p tosh asboblaridan hamda saqlanib qolgan jaydari arpa va bug'doy kabi boshoqli o'simlik qoldiqlaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, ular toshqinlardan hosil bo'lgan zax yerlarda dehqonchilik qilib, o'zları yetishtirgan donlik ziroatlarni qadama tosh o'roqlarda o'rib, donlarini yorg'uchqlarda yorma qilib, arpa yoki burdoy go'ja, o'moch, qo'g'irmoch hamda halim kabi emakliklar tayyorlaganlar. Qazishlardan chiqqan uy hayvonlari suyaklariga qaraganda, ular qadimgi Gujayli vohasiga qadar tutashib ketgan keng yaylovlarda echki, qo'y va qoramol boqib, chorvachilik mahsulotlaridan ham keng foydalanganlar.

Foydalanigan adabiyotlar

1. A.Muhammadjonov. Qadimgi Buxoro. –Toshkent: Fan, 1991.
2. Halim To'rayev Buxoro tarixi. O'quv qo'llanma. Buxoro – 2020.



QO’QON ADABIY MUHITINI SHAKLLANTIRISHDA XONLIKDAGI
KUTUBXONALARNING O’RNI

Rahmatullayeva Saodat Ibragimovna
Qo’qon davlat pedagogika instituti o’qituvchisi
Telefon: +998996300744

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qo’qon xonligidagi kutubxonalar va ularning Qo’qon adabiy muhitiga ta’siri, kutubxonalardagi kitoblar va ularning, bibliografik taxlili qilingan. Shuningdek, maqolada kutubxonani rivojlantirishga xissa qo’shgan Qo’qon xonlari tog’risida hamda xonlik kutubxonasinig taqdiri tog’risidagi ma’lumotlar taxlil etilgan.

Kalit so’zlar: kutubxona, kitob, bibliografiya, xonlik, madrasa, adabiyot, ijod, adabiy muhit, xonlik.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin xalqimizning ma’naviy merosi va uni o’rganishga katta e’tibor berila boshlandi. Ayniqsa, xalqimizning ma’naviy merosini asrabavaylashda kutubxonalarning roli kattadir. O’zbekiston hududida sharq qo’lyozma asarlarini saqllovchi kutubxonalar arablar istilosidan ancha oldin vujudga kelgan bo’lib, ularning paydo bo’lishi va faoliyati mamlakatning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti bilan bog’liqdir. Kutubxonalar ma’naviy boylik va ilmiy tafakkur durdonalarini o’z bag’riga olgan muassasa, ular katta miqdordagi kitob boyliklariga ega va insoniyat ijod qilgan g’oyat boy madaniy merosni asrlar osha bizgacha yetkazib bergen.

XVIII asrda vujudga kelgan Qo’qon xonligi saroyida maxsus kutubxona bo’lgan. Eng keyingi xonlardan Umarxon, Murodxon va Xudoyorxonlar saroyida ancha qimmatli kitoblarga ega kattagina kutubxona bo’lib, unda sharq qo’lyozmalari, ko’pincha tarix, jo’g’rofifiyaga doir, tibbiyat, tilshunoslik, grammatika, qonunshunoslik, ilohiyot va boshqa fanlarga doir kitoblar, qo’lyozma asarlari saqlangan. Ular orasida faqat mahalliy mualliflarning asarlari emas, hind, afg’on, eron va boshqa sharq xalqlari shoir va adiblarining asarlari ham uchrar edi.

Qo’qon xonligi saroyida kitobdar mansabidagi shaxsning faoliyat yuritganligi ham hukmdorlar tomonidan o’z saroylarida xos kutubxona bo’lganligidan dalolat beradi. Manbalarda qayd etilishicha, ushbu mansab dastlab Umarxon tomonidan joriy qilinib, unga Mirzo Qalandar Mushrif Isfaragiy tayinlangan. Mirzo Qalandar ushbu lavozimda vafotidan (1840-yil) ikki yil oldingacha bo’lgan muddatda shug’ullanib, undan so’ng bir g’orga kirib, to vafotiga qadar toat-ibodat bilan mashg’ul bo’lganligi qayd etiladi. Mirzo Qalandardan so’ng kitobdarlik lavozimiga uning o’g’li Mirzo Ayub Behjat tayinlanadi.

Qo’qon xoni Umarxon davridagi mamlakatning har tomonlama yuksalishi, ayniqsa, kitobat san’atida ham ko’zga tashlanadi. Xon saroyida xattotlar tomonidan turli xil mavzudagi kitoblar nafis bezaklar bilan ko’chirilib, ularning chet el hukmdorlariga sovg’a tariqasida yuborish an’anasi shakllanib borgan. Misol uchun, Umarxonning Usmonli davlatiga Hoji Mir Qurbon boshchiligidagi ilk elchilik missiyasida turli qimmatbaho sovg’alar qatori uning turkiy tildagi she’rlar jamlangan “Muhabbatnoma” asari ham bo’lgan. Ushbu antologiya Umarxonning topshirig’i bilan 1818—1819-yillarda sulton Mahmud II ga taqdim etish uchun tuzilganligi qayd etiladi. Shuningdek, 1813-yilda xattot Muhammad Latif tomonidan Alisher Navoiyning “Chor devon”i ham ko’chirilgan, u g’oyatda xushxat, jadvallari ziynatli, zarhal lavhali bo’lgan. Amir Umarxonidan keyin taxtga kelgan Muhammad Alixon davrida ham kitobat san’ati, xattotlik va saroyda kitoblarni ko’plab nusxalarda ko’chirish va tarqatish ishlari davom ettirilgan. Muhammad Alixonning o’zi ham mohir xattot bo’lganligi ma’lum. Muhammad Alixon onasi Nodirabegimning maslahati asosida 1838-yilda Muhammad Siddiq Tunqotar zimmasiga Alisher Navoiy “Chor devon”idan 300 nusxa ko’chirtirish vazifasini yuklaydi. Olti oy ichida “Chor devon”dan 300 nusxa tayyorlanib, lavvoh va musavvirlar tomonidan kitob holiga keltiriladi. Shuningdek, Muhammad Alixon topshirig’i bilan xattot Mirzo Sharif Dabir 1836-yilda Fuzuliying devonini nasta’liq xatida, 1837-yilda esa saylangan g’azallarini alohida go’zal xat bilan ko’chirgan[1]. Muhammad Alixon davrida kitobat va xattotlik ishlariga bunday katta e’tibor qaratilishida uning onasi – shoira Nodirabegimning hissasi bor, albatta.

Saroy kutubxonalaridagi kitoblardan asosan saroy mulozimlari va xizmatchilar foydalanishgan. Masalan, tarixchi Mirza Aziz qo’lyozmalardan tez-tez foydalanib turar edi. U «Qo’qon xonligi



tarixi» nomli katta hajmdagi kitobini tuzgan, unda Markaziy Osiyo davlatlari va mo‘g‘ul davlati tarixiga oid ma’umotlar ham qamrab olingan edi. Bu asarlarda Farg‘ona va Marg‘ilon shaharlari tarixiga doir materiallar yoritilgan. Marg‘ilon rus uyezdi boshlig‘i huzuridagi studiyalar hamda boshqa shaxslarning qisqacha tarjimai hollari ham keltirilgan [2.5-12].

Amir Umarxon va Muhammad Alixonlar davrida shakllantirilgan saroy kutubxonasining hajmi va undagi kitoblarning tavsiflari manbalarda keltirilmagan. 1842-yilda Buxoro hukmdori Nasrulloning bosqini oqibatida mamlakatning xazinayu butun boyligi, shu jumladan, saroy kutubxonasidagi barcha kitoblar ham katta ehtimol bilan talon-toroj qilingan. “Muntahab ut-tavorix” asarida “Saroydagi bir necha yillar davomida yig‘ilgan gilam, zarhal ko‘rpa-to‘shak, oltin, kumush va asl matoh, gazlama hamda qimmatbaho buyumlarning barchasini bir qoldirmay olib ketishdi”, deyilsa, “Tarixi Shohruhiy”da “Amir buyrug‘iga binoan shaharni to‘rt soat talon-toroj qildilar. Masjidlarda kigiz va joynamoz, madrasalarda kitob qolmadi. Barcha narsalar g‘arat bo‘ldi” deb, ma’lumot beriladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, nafaqat saroydag, balki masjid-madrasalar qoshidagi kitoblar ham olib ketilgan. Saroy kitobdori Buxoro istilosining so‘nggi vaqtiga qadar hukmdor Muhammad Alixon bilan birga bo‘lgan. Buxoro qo‘shinlari ta’qibidan qochib, Kafantepa degan mavzeda qo‘lga olingen Muhammad Alixon va uning yaqinlari orasida kitobdor Muhammad Ayub Behyatning ham bo‘lishi, shubhasiz, uning saroydagi xonga eng yaqin va sadoqatli kishilardan biri ekanligi haqidagi yuqorida bildirilgan fikrlarimizni tasdiqlaydi [3].

Qo‘qonning tez orada qipchoqlar yordamida Buxoro qo‘shinidan ozod bo‘lishi va undan keyingi hukmdorlar davrlardagi saroy kutubxonasi, uning faoliyati haqida manbalarda ma’lumotlar deyarli uchramaydi. Buxoro amiri tutqunligidan qochib chiqishga muvaffaq bo‘lgan Mirzo Ayubning ham keyinchalik yana kitobdorlik vazifasida faoliyat yuritganligi haqida ma’lumotlar mavjud emas. Faqatgina arxiv hujjatlarida Qo‘qon xoni Mallaxon (1858-1862) tomonidan 1860-yil aprelida Hoja kitobdor boshliq elchilarining Sibir orqali Peterburgga yuborilganligi va ushbu davrlarda xonlik xattotlari tomonidan ko‘chirilgan asarlar orqaligina saroy kutubxonasi bu davrlarda ham faoliyat yuritganini bilib olishimiz mumkin. Lekin xonlikdagi o‘zaro ichki nizolar va Buxoro amiri Muzaffarning xonlik ichki ishlariiga aralashib, Qo‘qonga kelishi bilan poytaxt bir necha marotaba talanib, butun boylik va qurol-aslahalar olib ketiladi, shu jumladan, xonlikning ma’naviy xazinasi bo‘lmish kitoblar ham talangan.

Qo‘qon xonlari saroyidagi kutubxona qo‘lyozmalari to‘g‘risidagi ayrim ma’lumotlarni biz 1875 yilda Qo‘qonga qilingan yurish qatnashchilarining bergen ko‘rsatmalaridan bilib olamiz. Bu yurishda A.L.Kunga qo‘lyozmalar va boshqa madaniy boyliklarni to‘plash vazifasi topshirilgan. Uning xabar berishicha, unga iloji boricha mahalliy tillarda yozilgan kitoblar, qo‘lyozmalar va hujjatlarni to‘plash vazifasi yuklatilgan [4.22].

Qo‘qon xoni saroyidagi kutubxonadan 103 ta qo‘lyozma olingen bo‘lib, ular asosan arab tilidagi diniy kitoblar (Qur'on nusxalari, payg‘ambarlar, avliyolarning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan kitoblar, musulmonlar rivoyatlari, to‘plamlari va shu kabilar) edi. Kitoblar orasida falsafa, mantiq, grammatika va notiqlik san‘atiga, tibbiyotga doir qo‘lyozmalar (masalan, «Bahr al-javohir» yoki Otabib Xorzaning «Marvarid dengizi»), 15 nomdan ortiq fors tilidagi asarlar, musulmon qonunchiligi, tarixiy mazmundagi «Tuhfat ul-xoniyy» (Muhammad Rahimxon hukmronligi tarixi), Jigan Lodining «Tarixi Jahongiri», Shohruh davridan tortib Xudoyorxon davrigacha bo‘lgan Farg‘ona hamda Qo‘qon tarixi va boshqalarga doir kitoblar bo‘lgan. Qo‘qon xonlari saroyi kutubxonasidagi arab va fors tillaridagi, turk-chig‘atoy lahjasida bitilgan qo‘lyozmalarining bir qismi Sankt-Peterburgdagi imperator xalq kutubxonasiga olib ketilgan. Kutubxonada she’riy qo‘lyozmalar ko‘p miqdorni tashkil etar edi. Bu yerda Navoiy, Bedil va boshqa mashhur Markaziy Osiyolik mualliflarning to‘plamlari, shuningdek, arab va fors tillaridagi har xil asarlar (Jomiy, Muhiy va boshqalarning she’rlari) o‘rin olgan. Bu qo‘lyozma to‘plamarining barchasi general-gubernator K.L.Kaufman tomonidan Sankt-Peterburgdagi imperator xalq kutubxonasiga sovg‘a qilingan va P.I. Lerx tomonidan tasvirlangan.

Sharq qo‘lyozmalarini saqlanadigan kutubxona Andijon begi Nasriddin (Xudoyorxonning o‘g‘li) saroyida ham bor edi. 1875-yilgi Qo‘qon yurishining ishtirokchisi A.L.Kun ko‘proq kitoblar, qo‘lyozmalar va hujjatlar to‘plash maqsadida Andijonga keladi. Shuningdek, Namangan, Marg‘ilon beklari va boshqa beklarning ham sharq qo‘lyozmalarini va kitoblaridan iborat kutubxonalari bo‘lgan.

Qo‘qon xonlari saroyidagi kutubxona XX asrning boshlariga kelib tanazzulga uchraydi, qo‘lyozmalarini va kitoblarini o‘g‘irlab ketilib, bozorlarda sotiladi. 1902-yilda Qo‘qonga qo‘lyozma asarlarni aniqlash va o‘rganish maqsadida kelgan V.V. Bartold xonning saroy kutubxonasini



ко‘здан kechirish chog‘ida afsus bilan bunday deb yozgan edi: «Hozirgi vaqtda hech qanday qo‘lyozmalar to‘plami yo‘q, hatto Xudoyorxonning oz miqdoridagi kutubxonasi qoldiqlari ham yo‘qolgan, ularni 1897-yilda K. G. Zaleman bu kutubxonaning sobiq saqlovchisi Sarimsoq hojinikida ko‘rgan edi».

Xudoyorxonning uchinchi hukmronlik yillari (1865—1875) ni tahlil qilish bilan saroy kutubxonasining so‘nggi yillardagi taqdiri haqida ham birmuncha mufassal ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Ma’lumki, Xudoyorxon tomonidan eski o‘rda – Zarrinsaroy o‘rnida yangi xon saroyi bunyod etiladi (1863—1870). Yangi o‘rdada davlat boshqaruvi uchun xos mahkamalar bilan birga, kutubxona ham faoliyat yuritgan. Qo‘qon madaniyati tarixi davlat muzeining katta ilmiy xodimi Yahyoxon domla Dadaboyevning ma’lumotlariga qaraganda, kutubxona O‘rdaning tashqi saroy qismidagi madrasa hovlisida joylashgan. Xudoyorxon O‘rdasi tashqi va o‘rta saroylarining keyinchalik buzib yuborilishi natijasida ushbu saroy kutubxonasi bizgacha yetib kelmagan. Bu davrda Qo‘qon xonlari saroy kutubxonasidagi kitoblar miqdori va ularning tavsifi haqida rus tadqiqotchilarining ma’lumotlari asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Chor qo‘shinlari tomonidan Qo‘qon xonligining bosib olinishi oqibatida xonlikning butun boyliklari, shu jumladan, xonlik arxiv hujjatlari va saroydagi 130 ta qo‘lyozma kitoblar ham Peterburgga olib ketilgan va Imperator xalq kutubxonasiga topshirilgan.

Ular orasida “Tavorixi Muqimxoniy”, “Jahonnoma”, “Rashahot”, “Rashonax ul-funun” va boshqa ko‘plab noyob asarlar bor edi. Bunday noyob sharq qo‘lyozma asarlari kutubxonasi Andijon begi Nasriddinxonning saroyida ham bo‘lgan. Shuning uchun ham Qo‘qon yurishlarida ishtirot etgan A.L.Kun 1875-yil mumkin qadar ko‘proq qo‘lyozmalar to‘plash maqsadida Andijonga ham kelgan. K.P.Kaufman topshirig‘i bilan A.L.Kun tomonidan xonlik arxiv va qayd etilgan 130 ta noyob qo‘lyozma asar Qo‘qon xonligi saroy kutubxonasi xazinasining umumiyligi miqdorini belgilamaydi. O‘scha paytda A.L.Kun tomonidan saroy kutubxonasining ma’lum miqdorigina olib ketilgan bo‘lib, 1897-yil Farg‘ona vodiysida ilmiy safar bilan bo‘lgan sharqshunos K.G.Zaleman xonlik kutubxonasining qolgan qismi Qo‘qon shahar uyezd boshqarmasida saqlanganligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, 1875-yilning yozida Xudoyorxonning mamlakatdagi beqarorlik oqibatida poytaxtni tashlab Toshkentga chiqib ketishida o‘zi bilan xazina va kutubxonadagi noyob asarlarning bir qismini ham olib ketgan. Shundan so‘ng xonlik taxtiga Nasriddinbek va soxta Po‘latxonlarning kelishi davomida saroy ham bir necha marta talangan. Bundan tashqari, rus qo‘shinlari tomonidan poytaxt egallangach, xon o‘rdasiga harbiy kazarma joylashtirilgan bo‘lib, K.G.Zalemanning ta’kidlashicha, saroyning ko‘p qismlari kazarmaga moslashtirilib, faqat uning tashqi ko‘rinish qismigina ma’lum o‘zgarishlarsiz qoladi. Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, rus qo‘shinlarining xonlikni egallashi davomida A.Kun tomonidan Peterburgga yuborilgan 130 ta noyob qo‘lyozma Qo‘qon xonligi saroy kutubxonasining umumiyligi miqdori bo‘lmay, balki saroy kutubxonasi o‘z davri uchun muhtasham va manbalarga boy bo‘lgan. O‘scha davrda xonlikka qarashli beklik markazlarida, madrasa-masjidlar qoshida, aholining ziyoli qismida ham ko‘plab noyob kitoblar jamlanmasi bo‘lgan [5.51]

Xulosa o‘rnida shuni takidlash joizki, Qo‘qon xonligida o‘ziga xos katta kutubxonalar bo‘lgan bo‘lib, ular Qo‘qon xonligida adabiy muxitni shakllanishida katta turtki bo‘lgan deyish mumkin. Shuningdek, o‘z o‘rnida adabiy xonlikdagi adabiy muhit kutubxonalarni yanada manbalar bilan boyishiga ham o‘z hissasini qo‘shgan. Yuqorida ta’kidlanganidek kutubxona talon-taroj qilingan bo‘lsada, mahalliy xalq qo‘lidagi manbalarning o‘zidanoq xonlik kutubxonasi haqidagi ma’lumotlarni olish mumkin.

Adabiyotlar

- 1.<http://s.daryo.uz/wp-content/upload2021/02/1 -199>
- 2.O. G‘. Qosimova. O‘zbekistonda kutubxonachilik ishi tarixi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, «O‘qituvchi» nashriyoti, 1981, 5-12-betlar.
- 3.<http://s.daryo.uz/wp-content/upload2021/02/1 -199>
- 4.A. L. Kun. Koran Osmana. Gaz. «Turkestanskie Vedomosti», 1870, 22-betlar
- 5.A.I.Kormilisin, M.M. Rasulov, S.X.Davlatov. Kutubxonashunoslik ishining nazariyasi va tarixi. O‘quv qo‘llanma. O’ZGEOKODASTR. Toshkent -2003, 51-bet.



TURKISTONDA ROSSIYA HUKMRONLIGIGA QARSHI QARATILGAN XALQ
HARAKATLARI VA ULARNING OQIBATLARI

Shaxnoza Xaliyeva Aliyevna

A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti
1-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Turkistonda Rossiya hukmronligiga qarshi qaratilgan xalq harakatlari va ularning oqibatlari bayon qilingan. Asosan Jizzax qo‘zg‘oloni haqidagi tarixiy manbalar o‘rganilgan. Shuningdek maqolada Jizzax qo‘zg‘olonining kelib chiqish sababları, oqibatlari va tarixiy ahamiyati bayon qilingan.

KALIT SO‘ZLAR: chor Rossiyasi, Turkiston o‘lkasi, Jizzax qo‘zg‘oloni, istiqlol uchun kurash, Jizzax fojeasi, mardikorlikka safarbarlik, birinchi jahon urushi, iqtisodiy tanglik, xalq harakatlari.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, ona Vatanimiz tarixini yanada chucherroq o‘rganish, tariximiz haqida teran fikr yuritish, xolisona xulosa chiqarish imkonini tug‘ildi. Vaholanki, sovetlar davrida O‘zbekiston tarixini teran o‘rganish, tarixiy haqiqatni bilishga intilish, deyarli bo‘g‘ib qo‘yilgan edi. Oqibatda tariximizning qanchadan-qancha boy sahfalari yo‘q bo‘lib ketdi. Soviet tuzumi va kommunistik mafkura taz‘yiqi ostida mamlakatimiz tarixi to‘g‘risida to‘la va haqqoniy tasavvurga ega bo‘la olmadik.

Mustaqillik tufayli mamlakatimizda birinchi prezidentimiz I.A.Karimov boshchiligidagi milliy tiklanish borasida amalga oshirilgan islohotlar tariximizni o‘rganishga katta va mas’uliyatli talab qo‘ydi. Bu borada mustaqilligimiz me’mori shunday degan edi. “Tariximizdagi og‘riqli davrlardan ham xulosa chiqarib yashashimiz kerak. Ertaga bizning o‘rnimizga keladigan yoshlar ana shu tarix haqiqati bilan qurollanishi lozim. Chunki hech bir sohada hech kimdan kam bo‘lmaydigan avlodgina buyuk davlat barpo etishi mumkin . Nega deganda, buyuk davlatni qurish uchun ma’rifatli, tarixni biladigan, undan saboq chiqara oladigan odamlar kerak”.[1]

Darhaqiqat, bugungi globallashuv davrida aynan milliy o‘zlik, ma’naviyat masalalarida ham tarixni chucher o‘rganish talab etiladi. O‘z tarixini, kimligini bilgan insonni yotg‘oyalarga ergashtirib bo‘lmaydi. Aksincha tarixini bilmagan, o‘zligini anglamagan insonning esa manqurtdan farqi bo‘lmaydi. Unday odamlar yotg‘oyalalar orqasidan ergashib ketaveradi. Ana shunday holatlarning oldini olish, bilimli va ma’naviyatli yosh avlodni tarbiyalash, mamlakatimizning istiqboldagi taraqqiyotini ta’minlash maqsadida ham tarixni xolisona o‘rganish davr talabi hisoblanadi.

Yurtimiz tarixini o‘rganish, uning yangi sahfalarini ochish birinchi prezidentimiz I.A.Karimov tashabbusi bilan 1996-yil oktyabr oyidan dadil qadamlar qo‘yildi. Bunda “O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish” g‘oyasi ilgari surilib, tarixchi olimlarimiz zimmasiga mas’uliyatli vazifalar yuklandi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 16-dekabrdagi “O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish va chop etish to‘g‘risida”gi Qarori[2]da, birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning 1998-yil 27-iyunda tarixchi olimlar bilan bo‘lgan uchrashuvda bildirgan fikrlari[3] hamda uning Muloqot[4], Tafakkur[5] jurnallari va Turkiston gazetasi[6] muxbirlari savollariga bergan javoblarida tarixchi olimlar va tarix fani oldida turgan eng dolzarb vazifalar alohida ta’kidlab o‘tildi.

Bu vazifalar va talablar bugungi kunda faoliyat olib borayotgan tarixchi tadqiqotchilarga va olimlarga ham tegishlidir. Chunki hali tariximizning o‘rganilmagan va ochilmagan sahfalari juda ko‘pdir. Ana shunday tariximiz sahfalaridan biri “Jizzax qo‘zg‘oloni” hali to‘laligicha o‘rganilmagan. Bu qo‘zg‘olonning kelib chiqishi birinchi jahon urushining iqtisodiy asoratlari bilan bog‘liqdir. Qo‘zg‘olon arafasida Jizzaxda ham butun o‘lkadagi kabi zulm-zo‘ravonlik, adolatsizlik cheksiz edi. Jizzax uyezdi boshlig‘ining ma’lumotnomasida qayd etilishicha, “aholining iqtisodiy ahvoli shu darajada og‘ir bo‘lganki, ular qishdan bahorga chiqquncha, gadoylar darajasiga tushib qolgan, sadaqa bilan kun ko‘rib, bir burda non u yodqa tursin, tariqqa ham zor bo‘lgan”.[7] Ana shunday ahvolda kun kechirayotgan aholidan birinchi jahon urushi yillarda Rossiyaga harbiy ehtiyojlar uchun juda ko‘p mahsulot majburan tashib ketildi. Mardikorlikka olish haqidagi farmon e’lon qilingach (1916-yil 3-iyul), norozilik keskin g‘alayonlarga aylandi. Ma’muriyat taqsimotiga ko‘ra, Jizzax uyezdi 11 ming mardikor, butun Samarqand viloyati 38 ming mardikor berishi kerak edi. Busiz ham halokat yoqasiga kelib qolgan aholi orasidan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo‘lgan erkaklarni noma’lum muddatga, ayni qishloq xo‘jaligi ishlari qizigan mavsumda olib ketilishi minglab oilalarning boquvchisidan ayirib, halok etishi turgan gap edi. 1916-yil 5-iyul kuniyoq dastlabki g‘alayonlar boshlandi. Qo‘zg‘olonga jizzaxlik Nazir Hoji boshchilik qilgan edi. Xaloyiq



eng oddiy quollar- ketmon, kaltak, pichoq, to‘qmoqlar bilan quollangan.

Shunga qaramasdan ko‘tarilgan g‘alayon hukumatni sarosimaga solib qo‘ydi. 15-iyul kuniyoq Jizzaxga polkovnik Ivanov boshchiligidagi jazo otryadi yuborilgandi. Butun uyezdga polkovnik Ivanov tayyorlagan e’lonlar tarqatiladi. Unda barcha qo‘zg‘olonchilar qirib tashlanishi, ularning mol-mulki xazinaga (davlat ixtiyoriga) o‘tkazilishi ta’kidlanadi.

Mustabid hukumat uyezdga 13 ta rota soldat, 2 ta artilleriya qismi, kazak otryadlari, sapyorlar qismi yuboradi. Jazo otryadi shafqatsizlik bilan deyarli quolsiz bo‘lgan qo‘zg‘olonchilarga qarshi jangga kirishadi. Qo‘zg‘olonchilar “Yo‘qolsin oq podshoh”, deb hayqirib, kurashga kirishadilar. Bu voqealar shohidi O‘zbekiston yozuvchisi Nazir Safarovning ta’kidlashicha, Jizzax shahri 1,5 kun qo‘zg‘olonchilar qo‘lida bo‘lgan.

Jazo otryadi pulemyotlarni ishga solib, avval Jizzaxni, keyin Zominni egallaydi, so‘ngra Sangzorga yurish qiladi. Tengsiz janglarda deyarli quolsiz g‘alayonchilar ommasi tutdek to‘kib tashlanadi, omon qolganlar quvg‘in etiladi. 21-iyul kuni jazo otryadi “Kuya boshi”da to‘plangan qo‘zg‘olonchilar hujumiga uchradi. Jangda qo‘zg‘olonchilar bir soat davomida pulemyotdan o‘qqa tutiladi. Qo‘zg‘olonchilar bu jangda yengiladilar, ularning sardorlari Abdurahmon jevachi, Nazir Hoji eshonlar qo‘lga olinadi, mustabid hukumat qo‘zg‘olon ko‘targan xalqdan vahshiyona o‘ch olishga kirishadi. Qo‘zg‘olonni uyuşhtirgan rahbarlar: Abdurahmon jevachi, Nazir Hoji eshon, aka-uka To‘raqul va Eshonqul To‘rabekovlar, Qosim Hoji eshonlar o‘lim jazosiga hukm etiladi. Jizzax shahri va yana bir necha qishloqqa o‘t qo‘yilib, yakson etiladi. Minglab kishilar boshpanasiz, uy-joysiz qoldi.

3-avgust kuni Jizzaxda 3 kun ichida g‘alayon aybdorlarini topish, agar tutib berilmasa, aholisi va uy-joylarini yo‘q qilib tashlash buyurildi. G‘alayon sardorlari tutilgan, o‘lim jazosiga hukm etilgan bo‘lsada, aholi orasidagi hukumatga qarshi kayfiyatdagi odamlarni yo‘q qilish uchun shunday chora belgilandi. 3 kun o‘tgach, 7-avgust kuni buyruq bajarildi. Jazo otryadlari shahar aholisini bir joyga to‘pgladilar. Pulemyot o‘qlari ostida shahardan quvib, cho‘lga haydadilar. Ularni ko‘pchiligi ayollar, qariyalar, bolalar bo‘lib, beayov jazolandi.

Bu fojialar haqida Turkistonligi jadidlardan Mustafo Cho‘qayev, Ubaydullo Xo‘ja Asadullaxon jayevlar Peterburgga borib Rossiya Dumasiga arz qildilar. Aholi nomidan murojaat etib, zo‘ravonlikni to‘xtatish, farmonni bekor etish, Turkistonligi ahvolni o‘rganish uchun vakil yuborishni talab qildilar. Rossiya Dumasi bu talablar asosida maxsus komissiya tuzib, o‘lkaga yubordi.

Komissiya Jizzaxda ham bo‘ldi. Keyinchalik Dumaning yopiq kengashida bo‘lib o‘tgan muhokamada (1916-yil, 13-15-dekabr) bu haqda deputat A. Kerenskiy shunday degan edi: “Men Jizzax vayronalarini borib ko‘rdim, janoblar, men ikki frontda — Kavkaz va G‘arbiy frontda bo‘lganman, lekin bunaqasini hali ko‘rmaganman”. Jizzax qo‘zg‘olonchilaridan 50 kishi o‘lim jazosiga hukm etildi, qolganlariga turma, surgun belgilandi. Hammasi bo‘lib 3 ming kishi hibsga olindi. Jizzax aholisi qirilib, omon qolganlari quvildi.

Xulosa qilib, aytish mumkinki, Jizzax qo‘zg‘oloni mustabid hukumatni qattiq sarosimaga soldi, mazlum Turkistonning mag‘rur xalqlari hali ko‘p narsalarga qodir ekanligidan, ular uchun erk, ozodlik hamisha muqaddas ekanligidan ogohlantirdi. Bu qo‘zg‘olon tarixda “Jizzax fojeasi”degan nom qoldirdi hamda o‘zbek xalqining mustaqillik uchun kurashi tarixinining eng qonli, unitilmas sahifasi bo‘lib qoldi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.Karimov I.A. Ona yurtimizning baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish - eng oliy saodatdir. T –“O‘zbekiston”, 2015, 39-bet.
2. Xalq so‘zi gazetasi. 1996 yil 17 dekabr.
3. Xalq so‘zi gazetasi. 1998 yil 28 iyun.
- 4.Tafakkur jurnali. 1998 yil. 2-son.
- 5.Muloqot jurnali. 1998 yil. 5-son.
- 6.Turkiston gazetasi. 1999 yil yanvar.
- 7.Safarov N. Unutilmas kun [1916-yilgi Jizzax qo‘zg‘olonidan xotiralarim], T., Boku, 1932.
- 8.Haydarov X. Jizzax viloyati tarixi, T., 1996.
- 9.Ziyayeva D. Turkiston milliy ozodlik harakati, T., 2000.
- 10.Ziyoyev H. Turkistonda mustaqillik uchun kurashlar tarixi, T., 2001.
- 11.O‘zbekistonning yangi tarixi, 1-kitob [Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida], T., 2000.
- 12.Choriyev Z. Turkiston mardikorlari: safarbarlik va uning oqibatlari (1916-1917), T., 1999.



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНинг БИРИНЧИ ПРЕЗИДЕНТИ ИСЛОМ
КАРИМОВ ТАРИХ, МАЊНАВИЙ-МАЃРИФИЙ МАСАЛАЛАР ҲАҚИДА.

Райимжанова Камилла Фарходовна
Шавази Рамиз Нуралиевич

Самарқанд давлат тиббиёт университети

Даволаш иши факултети 4 босқич талабалари

Телефон: +998(90)743-77-47

rcamilar2000@icloud.com

Аннотация. Маълумки, халқимиз шу кунга етиб келгунига не-не мashaқатлар қийинчиликларни бошидан кечирмади. Қанча-қанча буюк зотлар бу йўлда юртимиз учун, жонажон диёримиз учун жон фидо қилдилар. Шуни айтиш керакки, уларнинг сиймоси хамиша халқимиз хотирасида абадул-абад мангу қолади. У Жалолиддин Мангуберди бўладими, Нажмиддин Кубро бўладими, Амир Темур бўладими, балки Абдулла Авлонийдир, ҳеч ким рад эта олмайдики, уларнинг қони доимо бизнинг қайноқ томирларимизда оқиб турибди. Бизлар уларнинг давлатимиз олдидаги хизматлари, саъи-харакатлари учун нафақат миннатдормиз, балки қанча шарафласак, улуғласак кам. Шундай буюк инсонлардан бири мустақил Ўзбекистон Республикаси асосчиси, халқимизнинг чинакам отаси Ислом Каримовдир. Дарҳақиқат, бу зот элим деб яшаб, Ўзбекистонни тараққиё йўли олиб чиқа олган ва бу йўлда аниқ бир йўналишни бошлаб берган қаҳрамондир. Шунингдек, Ислом Каримов ўзбек халқини бирлаштирган, халқнинг қалбida келажакка ишонч уйғотган, ягона мақсад ва ягона интилиши билан яшашга ундаган эркинлик ва озодлигимизни ҳеч кимга бермай яшашга даъват этган давлат бошлиғи эди.

Калит сўзлар: мураккаб ва оғир курашлар тарихидир, жаҳон цивилизациясининг бешиги, “Тарихий хотирасиз келажак йўқ”, энг олий саодатдир, “Юксак мањнавият енгилмас куч”.

Ислом Каримов республика раҳбари бўлиб фаолият бошлаши билан фалсафа, тарих, айниқса Ватан тарихини ўрганиш, унинг услубиятига —оқ “доғлар”га доир масалалар фаол муҳокама этила бошланди. Ижтимоий-гуманитар фанларда жамият ва шахс масалалари, маданий мерос, тил муаммолари каби масалаларни хал этишга интилиши юзага келди. Бу масалаларга бағишиланган қарорлар, илмий, айниқса, публистик мақолалар газета ва журналлар саҳифаларида чоп этилди. Бироқ коммунистик мафкура якка ҳокимлиги шароитида мазкур масалаларни тўлиқ ҳал этиш мумкин эмас эди.

Собиқ совет тузум миллий ўзликин англаш жараёнига тиш-тирноғи билан қаршилик кўрсатар, жамиятдаги мавжуд зиддиятлар нуқсонлар, иллатлар аслида мустабид совет тузуми, коммунистик мафкура яккахонлиги туфайли юзага келаётганини яширишга, никоблашга уринар эди. Бу борада Президентимиз Шавкат Мирзиёев: —Замонавий Ўзбекистоннинг тарихи - бу мамалакатимизнинг ҳақиқий мустақилликка эришиши йўлида Ислом Абдуғаниевич Каримов раҳнамолигида олиб борилган ўта мураккаб ва оғир курашлар тарихидир [4, 4 б], деб таъкидлайди.

Ислом Каримов қилган буюк ишлар, хусусан республикамиз собиқ иттифоқ даврида ўзининг барча етиширилган пахта хосилининг аксарият ҳажмини текинга беришидан, олтин, қимматбаҳо ва рангли металлар, стратегик аҳамиятга эга бўлган материаллар, жаҳон бозорида ўта харидоригир бўлган бошқа қимматбаҳо маҳсулотларни ишлаб чиқариш ва сотишдан келадиган фойда Ўзбекистон хазинасига тушмасдан бошқалар ҳисобига ўтиб кетишига қарамасдан, юртимизни асрар қолганлиги, шулар жумласидандир. Унинг хар бир қилган иши келажакни кўзлаган, демократик давлат, эркин ва озод ҳаётни қуриш, энг асосийси, тинчлик ва барқарор осойишталиктни таъминлашдан иборат бўлди.

Мустақилликка эришгач, халқнинг ўз Ватанини, унинг тили, маданияти, қадриятлари, ўтмишини билишга қизиқиши ортади. Табийки, хар бир инсон ўз келиб чиқишини, аждодлари кимлар эканини, ўзи туғилиб ўсган қишлоғи тарихини, бир сўз билан айтганда, Ватани тарихини билишни истайди. Бугунги кунда бутун дунё Ўзбекистон, деб аталмиш юрт фақат шарқнинг эмас, балки жаҳон цивилизациясининг бешиги бўлганлигини тан олмоқда. Бу қадам ва муқаддас тўпроқ буюк олимлар, мутафаккирлар, сиёсатчилар, саркардаларни етишириган, дунёда бундай бой меросга эга бўлган халқлар унчалик кўп эмас.



Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И.А.Каримовнинг — “Тарихий хотирасиз келажак йўқ” асарида келтирилишича ... “аждодларимизнинг кўп асрлик ҳаётий тажрибасини акс эттирган нодир қўллэзмаларни уларнинг диний, маънавий-маърифий, илмий қарашларини жамлаган ёдгорликларни жиддий ўрганиш лозимдир.” [1, 19 б.] И.А.Каримов ушбу асарида кўйидаги муҳим мафкуравий гояларни илгари сурган эдилар.

Мамлакатимиз коммунистик мафкура ҳукмронлиги йилларида бутун маънавиятимиз миллий қадриятларимиз, маданий меросимиз топталганлиги, тарихимиз, миллий давлатчилик тарихи бузиб кўрсатилганлигини, давлатчилигимиз туб бурилиш палласига кирган айни бир пайтда ўзимизнинг замон ва маконда ўрнимизни аниқ белгилаб олишимиз, насл-насабамизни, қимлигимизни билишимиз кераклигини; комил инсон тарбияси давлат сиёсатининг устувор соҳаси эканлигини; жамият тараққиётининг асоси, уни мураккаб ҳалокатдан қутқариб қола оладиган ягона куч-маърифат эканлигини, ўзликни англаш тарихни билишдан бошланишини; Тарихий хотираси бор инсон иродали инсон, уни йўлидан уриши мумкин эмаслигини. Тарих қадимийлигини, бундан 3 минг йил аввал “Авесто” бизнинг заминимизда яратилганлигини; миллий бирлигимиз, маданиятимиз илдизлари, томири ўтроқ бўлгани, “ўзбек” деган ном Шайбонийхон давридан эмас, балки қадимий миллат бўлиб шаклланганлигини, ўзбек том маънода бунёдкорлиги баён қилинган.

Шунингдек, Биринчи Президентимиз И.А.Каримов Ўзбекистон тарихини сохталашибурувчи чет эл мутахассисларини кескин танқид остига олган ҳолда, 1924 йилгача Ўзбекистонда давлатчилик мавжуд бўлмаган ва ўзбеклар хуннларнинг авлоди эканини таъкидловчиларни, Амир Темурнинг обрў-эътиборини пасайтирувчи, уни буюк саркарда, лекин қонхўр ҳукмдор, деб хисобловчи сохта тарих яратувчиларни Ўзбекистон тарихини чуқур билмасликда айблаб, аксинча тарихни холисона, ҳаққоний, танқидий нуқтаи назардан ўрганиш лозимлигини долзарб вазифа сифатида қўяди. Ўзбекистоннинг обрўсини юксалтириш ҳақида сўз борар экан, Ал Хоразмий, Абу Райхон Беруний, Имом ал-Бухорий, Имом ат-Термизий, Абу Наср Фаробий, Ибн Сино, Жалолиддин Мангуберди, Нажмиддин Кубро, Махмуд аз-Замахшарий, Амир Темур, Мирзо Улуғбек, Мирзо Бобур каби буюк алломалар ва тарихий шахслар маънавий мероси ва давлатчилик ривожланишига қўшган буюк ҳиссасини эътироф этиш лозимдир. Шунинг учун ҳам Ислом Каримов “Тарихий хотирасиз келажак йўқ” асарида ҳар бир ҳалқ ўз тарихини асраши ва ҳимоя қилиши лозимлигини таъкидлаган.

Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти Ислом Каримов “Она юртимиз баҳту иқболи ва келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир” номли асарида бугунги раҳбарнинг маънавий-аҳлоқий фазилатларига алоҳида тўхталиб “Эл – юрт ишончига муносиб бўлиб, олдимизда турган буюк мақсадлар учун, Ўзбекистонимизнинг дунёдаги ривожланган демократик давлатлар қаторига кириши, ҳалқимиз фаровонлигини янада ошириш, мамлакатимизнинг жаҳон ҳамжамиятидаги обруси ва нуфузини юксалтириш йўлида ўзини баҳшида қилиш, вақти келганда, Ватанимизни янада равнақ топтиришда менинг ҳам қўшган ҳиссам бор, деб мамнун бўлиб, рози бўлиб яшаш – бу чинакам баҳтдир” [2, 207 б.] деб таъкидлаган эдилар.

И.А.Каримовнинг маънавият масалаларини кенг таҳлил этиш, унинг асосий тамойилларини бугунги мураккаб технология жараёнига татбиқ этиш борасидаги хизматлари ҳақида гапирап эканмиз, аввало ижтимоий-гуманитар фанлар тараққиётига қўшган назарий хулосаларидан бири – маънавиятнинг ижтимоий илдизлари, унинг факат инсонгагина хослиги жамият тараққиётидаги бекиёс аҳамияти ҳақидаги назарияни таъкидлаб ўтиш жоиз. И.А.Каримовнинг “Юксак маънавият енгилмас куч” номли асари Биринчи Президентимизнинг шу пайтгача билдирган маънавият тўғрисидаги фикрларини тўлдирибинга қолмасдан, уларни илмий-назарий қоидалар ва хулосалар билан бойитди.

Асар бугунги куни зарурияти туфайли дунёга келди. “Дунёдаги зўровон ва тажковузкор кучлар айрим ҳалқларнинг энг буюк бойлиги бўлмиш миллий қадриятлари, тарихи ва маънавиятидан жудо қилишга қаратилаётган ҳар қандай таҳдид ўз-ўзидан мамлакат хавфсизлигини, унинг миллий манфаатларини, соғлом авлод келажагини таъминлаш йўлидаги жиддий хатарларга айланishi ва охир-оқибатда жамиятни инқирозга олиб келиши мумкин” [3,11-12.] бўлган бир пайтда бу асарни аҳамияти ниҳоятда катта бўлди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек “Ислом Каримов миллатнинг ҳақиқий етакчиси сифатида она ҳалқни гўзал ва бетакрор Ўзбекистонни



жонидан ҳам ортиқ севар, унинг манфаатларини ҳимоя қилиш ва рўёбга чиқаришни ўз ҳаётининг бош мақсади, деб билар эдилар. У киши ўзининг “Элим деб, юртим деб, ёниб яшаш керак” деган ғоясига бир умр амал қилиб, келажак авлодлар учун буюк ибрат мактабини яратдилар”. [4, 9 б.]

Адабиётлар

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т., Ўзбекистон, 1998, 19- бет.
2. Каримов И.А. Она юртимиз баҳту иқболи ва келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. Т., “Ўзбекистон”, 2015, 207-бет.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. Т., “Маънавият”, 2008, 11-12 бетлар.
4. Шавкат Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз. –Тошкент: “Ўзбекистон”, НМИУ, 2017, 9- бет.



TARIX DARSALARIDA O‘YINLI TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI
FOYDALANISH

Atamurodova Sabohat,
Xorazm viloyati Xonqa tumani
8-maktab tarix fani o‘qituvchisi
Telefon: +998993110221

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix fanining muximligi, uning qiziqarliligi va o‘yinli texnologiyalardan foydalanish yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: O‘yin,tarix, texnologiya, bilim, xona, o‘quvchi.

O‘yinli texnologiyalar ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlash,o‘quvchilarda muayyan faoliyekni yuzaga keltirish,shuningdek bilim ko‘nikma va malakalarni hosil qilishga hizmat qiluvchi vaqt oralig‘ini qisqartirish,ta’limni jadallashtirishga yordam beradi.

O‘yinli texnologiyalardan foydalanishda bir qator psixologik xususiyatlar ham namoyon bo‘ladiki uning oqibatida har bir o‘quvchi o‘zining shaxsiy imkoniyatlarini namoyish eta oladi,ijtimoiy hayotda o‘zi egallagan o‘rnini barqarorlashtiradi,o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini hosil qiladi. O‘yinli texnologiyalar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash,ularning amaliy ko‘nikma va malakalarga aylanishini ta’minlabgina qolmay,balki o‘quvchilarda muayyan ahloqiy,irodaviy sifatlarni ham tarbiyalashga yordam beradi.

O‘yinlarni tashkil etishda quyidagi maqsadlar ko‘zda tutiladi: ta’limiy (didaktik) maqsad,tarbiyaviy maqsad,faoliyatni rivojlantirishga yo‘naltiruvchi maqsad, ijtimoiy maqsad.

Zakovat o‘yini.

Bu o‘yinni o‘tkazishda dastlab xonani o‘yinga moslashtirish lozim bo‘ladi.

O‘yin ishtirokchilarini test yordamida saralab olinadi.Yuqori ball olgan o‘quvchilar o‘yinda ishtirok etish huquqiga ega bo‘ladi.O‘yin qatnashchilarini

6-8 kishidan iborat bo‘ladi.Qolgan o‘quvchilar esa o‘yinni tomoshabin sifatida kuzatib turishadi. O‘yin uchun mo‘ljallangan savollar konvertga joylashtirib qo‘yiladi.Guruh sardori savolni olib o‘qituvchiga beradi.O‘qituvchi savolni o‘qib eshittiradi.Javobni aniqlash uchun bir daqiqa vaqt ajratiladi.Bu vaqt orasida o‘yin ishtirokchikari javobni maslahatlashib topishga harakat qilishadi. Bu o‘yinni asosan yuqori sinfda o‘tkazish tavsiya qilinadi.

Zakovat o‘yinlarida asosan,o‘rtaga muammoli savollar tashlanib,shu muammoni hal etishga diqqat qaratiladi.

“To‘g‘ri top” o‘yini uchun ikkita plakat kerak bo‘ladi.O‘qituvchi birinchi navbatda biror mavzu bo‘yicha kalit so‘zlarni boshlanishini yozib qo‘yadi,o‘quvchi esa tartibni o‘zgartirgan holda kalit so‘zlarning davomini yozib qo‘yadi.O‘yinni 6-sinflarda “Qadimgi dunyo tarixini davrlashtirish” mavzusini o‘rganishda qo‘llash mumkin.

1. Poleolit bu...
2. Mezolit bu...
3. Neolit bu...
4. Eneolit bu... va h.k

O‘yin shu tarzda davom etadi.Ushbu o‘yin o‘quvchilarda fanga yoki o‘rganilayotgan mavzuga qiziqish uyg‘otadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. 6-sinf tarix darsligi
2. Q. USMONOV, M. SODIQOV S. BURXONOVA”O‘ZBEKISTON TARIXI” Toshkent «IQTISOD-MOLIYA»2016

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 3-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.06.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000